

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

O'ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

YULDASHEVA MARHABO

5220100-o'zbek filologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini
olish uchun “Tarixiy romanlarda tarixiylik va badiiylik”
(*Pirimqul Qodirov va Muhammad Ali romanlari asosida*)
mavzusidagi

Ilmiy rahbar: f.f.n. G.AVEZOVA

Nukus-2014

MUNDARIJA

Kirish.....	8
I bob. Tarixiy shaxs obrazini yaratishda hayot haqiqati va badiiy talqin.....	4
II bob. Tarixiy asarda milliy qadriyatlar badiiy talqini.....	24
Umumiy xulosalar.....	38
Adabiyotlar ro'yxati.....	41

REJA

KIRISH

I BOB. TARIXIY SHAXS OBRAZINI YARATISHDA HAYOT HAQIQATI VA BADIY TALQIN

II BOB TARIXIY ASARDA MILLIY QADRIYATLAR BADIY TALQINI

UMUMIY XULOSALAR

ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Tarix va badiiy adabiyot masalasi g'oyat serqirra, serko'lam va teran masaladir. XX asrning 70-yillaridan boshlab, xalqimizning olis o'tmishiga, tarixiy shaxslar taqdiri va hayotiga qiziqish nihoyatda kuchaydi. Tarixiy xaqiqatni badiiy xaqiqatga aylantirish jahon adabiyotida ustivor yo'nalishlardan hisoblanadi. Zotan, **tarix voqelikning bo'lib o'tgani haqida so'zlasa, adabiyot uning qay tarzda bo'lgani xususida yoritadi.** Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, adabiyot har qanday tarixiy voqeani shunchaki tasvirlamaydi. Uning markazida inson omili turadi va insoniy tuyg'ular va kechinmalarni tasvirlash birinchi planga chiqadi. Tarixda chuqur iz qoldirgan markazlashgan davlat va temuriylar sulolasining asoschisi Amir Temur hayoti va uning avlodlari faoliyatiga bag'ishlangan badiiy asarlarni tadqiq etish bugungi adabiyoshunoslik oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi. Ushbu malakaviy bitiruv ishimizda iste'dodli, taniqli yozuvchi Pirimqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" romanlarida Amir Temurning suyukli o'g'li Shohruh Mirzoning hamda rafiqasi Gavharshodbegim obrazlarining Muhammad Alining "Ulug' saltanat" asarlarida qay darajada badiiy aks ettirilganligi bilan dolzarblik kasb etadi.

So'ro tuzumi davrida adabiyot, san'at va siyosiy doiralarda eng ko'p ta'qibga uchragan siymo – Amir Temur va uning avlodlari hayoti bo'ldi, uning o'zbek davlatchiligi tarixidagi mislsiz xizmatlari inkor etib kelindi. Bu haqda Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: **"Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosida kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak"**¹. Yurtboshimizning ushbu fikrini adabiyoshunoslik ilmiga tadbiq etganda, Amir Temur va uning avlodlari haqidagi tarixiy haqiqatni anglash, uni idrok etish, Shohruh, Gavharshodbegim hamda ularning suyukli nabiralari

¹ Karimov I. Amir Temur – faxrimiz, g'ururimiz, - T: "O'zbekiston"; 1998. 36-bet.

siymosini badiiy asarlarda aks ettirish nafaqat tarixiy zarurat, balki, adabiy-badiiy ehtiyoj ekani ma'lum bo'ladi.

Tarixiy shaxslar xarakteridagi ibratli qirollarni o'rganish, tarixiy voqealar hamda buyuk shaxslar hayotidagi davrlar sinovidan o'tgan, mashhur tarixiy siymolarning badiiy adabiyotdagi yorqin obrazini tadqiq etish adabiyotshunoslik fanining dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Istiqlool tufayli qayta tiklanayotgan milliy tariximizni to'g'ri anglash uchun mazkur mavzu badiiy adabiyotda haqqoniy aks ettirilishi lozim. Binobarin, har ikkala romandagi bosh qahramon xarakterini tarixiy nuqtai nazardan haqqoniy aks ettirilganligini o'rganib, uni badiiy talqin etishdagi P.Qodirov erishgan yutuqlarini tahlil qilish ham adabiy jarayon bilan bog'liq muhim xulosalar beradi.

Tarixiy voqelikni badiiylashtirishga doir izlanishlar o'zbek adabiyotida 70-yillardan boshlab keng e'tibor berila boshladi. Lekin, Abdulla Qodiriy ijodi bu shakllanishning avvalida turgani shubhasiz. Chunki aynan Qodiriy «moziyga qaytib ish ko'rishning xayrlik» ekanligini o'z ijodida ko'rsatib bergan edi. Ammo XX asrning ibtidosida boshlangan bu harakat keyinroq o'zgacha tusda davom etdi. Ya'ni Qodiriy «mavzuni moziyning kir sahifalaridan» olgan bo'lsa, 60-70 yillarda jahon milliy madaniyati taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Sharq allomalarining, jahongir qahramonlar siymosini yaratishga e'tibor kuchaydi. Binobarin, bu holat davriy to'lg'onishlar bilan bogliq ediki, bu bizning tadqiq yo'nalishimizga kirmagani uchun o'zga tadqiqotlarga qoldiramiz.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Biz o'zbek adabiyotida tarixiy hikoyalari, qissalari, romanlari bilan ushbu yo'nalishning taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Pirimqul Qodirov va Muhammad Ali ijodiga e'tibor qaratdik. Chunki adib ijodi o'zbek adabiyotshunosligidagi mazkur masala yuzasidan yirik monografik tadqiqotlar yaratilgan, ammo hanuzgacha bu asarlar to'la-to'kis bahosini olganicha yo'q. Ana shu kemptiklikni to'ldirish maqsadida mavzu tanlar ekanmiz, uning dolzarbligini quyidagi jihatlar bilan izohlashimiz mumkin:

- Har ikkala adib ijodi, ayniqsa P.Qodirov va M.Ali ijodi o'zbek adabiyotshunosligida hali etarlicha tadqiq etilmagan. Modomiki muddao tadqiq

ekan, adib ijod yo'nalishi, uning o'ziga xos estetik printsiplarini tahlil etishni taqozo etadi;

- Adib ijodini tahlil etarkanmiz, uning estetik tasvir printsiipi – tarixiy mavzu va uning talqini masalasiga e'tiborsiz qarash mumkin emas;

- Adib romanlari yuzasidan adabiyotshunosligimizda bir qadar kengroq munosabat bildirilgan. O'z-o'zidan ayonki, tadqiqini kutayotgan masala – tarixiylik va badiiylikdir.

- M.Ali ijodida tarix mavzusining yoritilishi;

- P.Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida tarixiylik va badiiylik modusi tahlilini kusatishdan iborat.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Biz P.Qodirov qalamiga mansub romanlarni badiiy tahlil etish va uning o'ziga xos jihatlarini nazariy jihatdan tekshirishni o'z oldimizga maqsad sifatida qo'yar ekanmiz, ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- adib asarlarini o'zlashtirish, o'rganish;

- shu yo'nalishda yaratilgan asarlar bilan qiyosiy tahlil etish;

- ushbu yo'nalishda bajarilgan ilmiy va ilmiy-tanqidiy manbalar bilan tanishib chiqish;

- M.Alining obraz yaratish mahoratini ilmiy-nazariy tekshirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqot o'z yo'nalishi va tahlil ob'ektining hali o'rganilmagan asarlarga murojati bilan yangidir. Shuningdek, odatdagi tarixiy mavzular yoritilishdan o'zgacharoq bo'lgan asarlarni tahlil etish, undagi tarixiy voqelikdan ham ko'ra ko'ngil kechinmalarining ustivorligini ko'rsatishga qilingan harakat bilan ham o'z yangiligini ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqotning metodologik asosi. Biz Aristotel, Gegel, Belinskiy, Chernishevskiy kabi jahon allomalarining badiiy adabiyot estetik printsiplari, nazariy qoidalariga bag'ishlangan tadqiqotlaridagi fikrlariga suyardik. Shuningdek, N.Karimov, U.Normatov, S.Mirvaliev, A.Kattabekov, Q.Yo'ldoshev, I.Yoqubov kabi o'zbek olimlarining ham fikrlari, mazkur masalaga oid qarashlariga o'z tadqiqot ishimizni bajarish jarayonida murojaat etdik.

Tadqiqotning ob`ekti va predmeti. Biz mazkur BMI ishini amalga oshirishda tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, adib Pirimqul Qodirovning «Ona lochin vidosi» (-T., «Sharq», 2000) romani, Muhammad Alining «Ulug'saltanat» (- T., «Sharq», 2004-y.) tetralogiyasini tanlab oldik.

Tadqiqotning tuzilishi. Mazkur BMI maqsad va vazifalardan kelib chiqib, kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. TARIXIY SHAXS OBRAZINI YARATISHDA HAYOT HAQIQATI VA BADIY TALQIN

Adabiyoshunos olim U.Normatov qayd yetishicha: “Pirimqul Qodirov tarixiy romanlarining badiiyati hali adabiyoshunoslikda yaxshi o`rganilgan yemas. Bu asarlarni to`g`ridan-to`g`rib iron tarixiy romanchilik maktabiga mansub deb bo`lmaydi. Ularda xilma-xil romanchilik maktablarining tajribalari o`ziga xos tarzda mujassamlashgan. Bugina yemas, izchil realism an`analariga sodiq Pirimqul Qodirov romanlarida XX asr jahon taraqqiyparvar moderinistik adabiyotining tajriballari bilan mushtarak jihatlari ham mavjud yekani tanqidchilikda ye`tirof yetildi. Chunonchi, Akbarning toj-taxt, dunyo tashvishlaridan qochib uzlatga chekinib yurgan kezlaridan ruhiy holatlari ifodasida buni kuzatish mumkin”.¹

Yana shuni qo`shimcha qilish mumkinki, yozuvchining tarixiy romanlari faqat mutaxassislar, tarixchi olimlar, adabiyoshunoslar yemas, o`zimizda ham, xorijiy davlatlarda ham kitobxonlar orasida katta qiziqish uyg`otmoqda.

Yozuvchi 1994-2000 yillar davomida “Ona lochin vidosi” romani ustida ish olib boradi. Romanning bir necha boblari 1997 yili “Jahon adabiyoti” jurnalining ilk sonida ye`lon yetildi, jamoatchilik orasida iliq taassurot qoldirdi, matbuotda ko`plab ijodiy fikrlar bildirildi. Nihoyat, bu asar ustidagi ish 2000 yil oxirlarida intihosiga yetadi, unga yilning o`zidayoq romandan yangi boblar “Yozuvchi” gazetasida bosiladi, 2001 yilning boshlarida u alohida chiqdi. Ayni paytda tarixiy romanchilik va davr xususida so`z yuritar yekanmiz, ye`tirof yetish joizki, P.Qodirov yaratgan badiiy solnomada adibning shiddatkorona uslubi yaqqol ko`zga tashlanadi. Yozuvchi tarixiy mavzuga qo`l urganda anchayin murakkab holatlarga ro`baro` keladi. Kezi kelganda ushbu fikrlar ham adib uchun asosli yekanligi yaqqol ko`zga tashlanadi: “Adabiy jarayonda shunday ijodkorlar bo`ladiki, ularning har bir yozgan asari jamoatchilikning diqqatini darhol o`ziga jalb qiladi, u haqida tanqidchilikda ham ketma-ket maqolalar ye`lon qilinadi. Bunday yozuvchilar qanday mavzuda yozmasin, barcha asarlarida ona xalqining qasamiyodiga munosabat bildiradi. Mashhur yozuvchi Pirimqul Qodirov ana

¹ Normatov U. Yangi o`zbek adabiyoti. – T.: “Universitet” 2007. 144-bet.

shunday zamonamizning mutafakkir yozuvchilaridan biri hisoblanadi” – deb yozadi prof. H.Absamiyev. Ushbu fikr-mulohazalar zamirida adibning boy va yuksak mahorat sohibi, soʻz zargari yekanligi koʻz oʻngimizda yanada yaqqol gavdalandi.

P.Qodirov Bobur va boburiylar haqidagi romanlari ustida ish olib borar yekan shunday xulosaga keldi: “Asrlar kitobini oʻqiganingiz sari, - deydi u – tarix tomonidan yaratilgan dramalar, fojialar, sujetlarni alohida yozunchining fantaziyasi bilan yaratib boʻlmasligiga ishonch hosil qilasiz. Shu sababli men Bobur, Humoyun va Akbarlarning koʻrgan-kechirganlarini tasvirlar yekanman, oʻz fantaziyamdan koʻra “tarix fantaziyasi”ga, yaʼni chindan sodir boʻlgan voqealarga koʻproq asoslandim”. Adibning bu fikrlari toʻgʻidan-togʻri “Ona lochin vidosi” romaniga ham taaluqlidir. “Oʻtkan kunlar”dagi kabi P.Qodirov tarixiy romanlarida ham yel-yurtini ichidan yemiruvchi oʻzaro nizolar, ularning fojia oqibati ifodasi oʻquvchi qalbini oʻrtaydi; ayni paytda, hayotda yezgulikni oʻzida mujassam yetgan turli siymolarning mavjudligi kishi koʻngliga taskin beradi, quvonch baxsh yetadi. “Ona lichen vidosi” romanida muallif temuriyzodalar – Shohruh Mirzo umrining soʻnggi damlari, Mirzo Ulugʻbekning tahlikali kunlari, halokati, Abu Said saltanati yillari, nihoyat Husayn Boyqaroning hokimiyat tepasiga kelishi voqealarini qalamga oladi. Hajm jihatdan ham “Yuduzli yunlar” va “Ablodlar dovoni” ga nisbatan ancha moʻjaz bu romanning voqealar koʻlami hiyla keng. Toj-taxt uchun ketgan shavqasiz jang-u jadallar, saroydagi ichki nizolar, tashqi tazyiqlar oʻzaro adovatlar, son-sanoqsiz qotilliklar romanda bor holicha koʻrsatiladi. Biroq bu roman toj-taxt uchun ketgan jang-u jadallarning shunchaki xronikasi yemas. Bu asar markazida temuriy tojdorlar yemas, balki ona lochin – Gavharshodbegim siymosi turadi. Adibning avvalgi romalarida ham qator temuriylar sulolasiga mansub alomat ayollarining obrazi katta yehtirom, zoʻr mehr-muhabbat bilan qalamga olingan yedi. Ayniqsa, Xonzodabegim, Hamidabonu obrazlari tarixiy romanchiligimizda muhim yangilik boʻlib saqlanadi. Xonzodabegimning inisi Boburga cheksiz mehri, sadoqati, oʻz shaxsiy hayotini qurbon qilib, koʻngli tusamagan odam Shayboniixon sharoitiga koʻnib, uning nikohiga oʻtib, inisi

hayotini qutqarib qolishi, binobarib, o'z shaxsiy hayotini, baxtini o'rtaga qo'yib, temuriylar saltanatini asrab qolishga ulkan hissa qo'shganligi barchamizga yaxshi ma'lum.

Tarixiylik nafaqat jahon nasri balki, o'zbek milliy nasri, jumladan, romanchiligining ham asosiy adabiy-estetik printsiplaridan biri hisoblanadi. Badiiy asarda tarixiylik printsiplarining namoyon bo'lishida tarixiy shaxs, makon va zamon, davr va qahramon munosabati kabi ko'plab masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek adabiyotida mashhur tarixiy shaxslar hayoti asosida yaratilgan romanlarning syujet yo'nalishida ham, prototipiga ega bo'lmagan to'qima obraz yoki voqealar silsilasi aks ettirilgan asarlarda ham, qahramonlar nutqining stilizatsiyasida ham tarixiylik bosh ijodiy printsiplari sifatida bo'y ko'rsatganini kuzatish mumkin.

XX asrning so'nggi choragi jahon va rus romanchiligida tarixiylik tamoyillari ma'lum darajada saqlangan bo'lsa-da, an'anaviy romanchilikdan farqli ravishda tarixiy haqiqatni yangicha idrok etuvchi, hajman ixcham asarlar ham yaratilmoqda. Bu tipdagi romanlar tarixiy shaxsning yangicha poetik talqini, voqelikka falsafiy munosabati, milliyligi, ifoda usullari va badiiy til imkoniyatlaridan foydalanishdagi o'ziga xosliklari bilan bugungi kun o'quvchisining diqqat-e'tiborini tortayotganini kuzatish mumkin¹.

XX asr jahon romanchiligining yirik namoyandalari sanalgan Uilyam Folkner, German Gesse, Nossak, Kyoppen, Xyubert Lampo, Maks Frish, Jeyms Joys kabi adiblar an'anaviy romanchilik ufqlarini yangicha poetik idrok va teran falsafiy mushohadakorlik bilan kengaytirdilar. Bu adiblar qahramon ruhiyatini kashf etishda voqelik tafsilotidan ko'ra, "men"ning ichki dunyosi tasviriga, chunonchi, kolliziya va monologlar, ruhiy olamdagi ziddiyatli jarayonlar tasviriga e'tiborni kuchaytirdilar. Jahon romanchiligiga xos bo'lgan bu xususiyat keyinchalik V.Shukshin, F.Abramov, A.Gel'man, V.Rasputin, V.Astaf'ev, V.Belov, A.Bitov singari rus adiblarining romanlariga ham "ko'chgan"².

¹ Судьбы романа. Сборник статей. – М.: Прогресс, 1975. – С.13.

² Қаранг: Лейдерман Н.Л., Липовецкий М.Н. Современная русская литература. Т. 2. / Семидесятые годы. – М.: Academia, 2006.

Adabiy aloqalar va o'zaro ijodiy ta'sir tufayli bugungi o'zbek adabiyotining "qiyofasi" ham o'zgarib, jahon va rus romanchiligiga xos ustuvor yo'nalishlar bo'y ko'rsatayotganini Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Shukur Xolmirzaev, O'tkir Hoshimov, Omon Muxtor, Asad Dilmurod kabi romannavislar ijodi misolida ko'rish mumkin. Tabiiyki, davr va badiiy tafakkurdagi evrilishlar bois tarixiylik printsiplariga qo'yiladigan mezonlar ham yangilanib bormoqda. Tarixni poetik idrok etishda faqat buyuk shaxslar va ularning tarix oldidagi olamshumul xizmatlarini voqealar qatlamida aks ettirish bilangina cheklanish davri o'tdi. Endilikda adiblar qahramonning ruhiy olamini chizishda nafaqat tarixiy voqelikning muayyan bir davri, alohida olingan ayrim ko'rinish va epizodlarini tasvirlash, balki bugungi kun kishisining orzu-umidlari, ideallari bilan bog'liq muammolar fonida ko'rsatishga ko'proq e'tibor qaratishmoqda. Tarixiy romanlarda avvalgilardek, asos-e'tibori bilan tarixdagi biror voqea va hodisaning badiiy tasviri emas, balki ayni voqelikning zamon qahramoni ongidagi akslanishi va munosabati etakchi ahamiyat kasb etmoqda¹.

Sho'rolar tuzumi xalqimizni o'z o'tmishidan, tarixidan uzilib yashashga mahkum etgan edi. Zero, o'sha davr siyosatining manfurona maqsadi ham ming yillik an'analarga ega milliy qadriyatlarni toptash, o'tmishni soxtalashtirish va milliy o'zlikdan begona qilishga qaratilgan edi. Shuning uchun fidoyi yozuvchilarimiz o'z asarlarida xalqimizning haqiqiy tarixini tasvirlash va buyuk ajdodlarimizning haqqoniy siymosini yaratishga tashna edi. O'tgan asrning saksoninchi yillaridan boshlab ijtimoiy va ma'naviy hayotga demokratik tamoyillarning kirib kela boshlashi va, nihoyat, mustaqillik davriga kelib adabiyotda millatning asl farzandlari va milliy qahramonlar, tabarruk avliyolar va el ardoqlagan shoirlar to'g'risida haq gapni ayta olish imkoniyati paydo bo'ldi. Natijada ijod ahli katta ishtiyoq bilan tarixiy shaxslar siymosini yaratishga kirishdilar. Biroq, bu davrda yaratilgan tarixiy romanlarning barchasini o'zbek adabiyoti xazinasidan munosib joy egallagan «O'tkan kunlar», «Navoiy»,

¹ Болтабоев Х. Хужжатлар тили ва бадийлик сехри //Меҳрга йўғрилган ижод. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2008. – Б.62.

“Ulug`bek xazinası”, “Yulduzlı tunlar”, “Avlodlar dovoni” kabi badiiy tafakkurni yangilay oldi, deyish qiyin. Shu nuqtai nazardan munaqqid P.Shermuhamedovning quyidagi fikrlari xarakterlidir.

“Insonning behalovat ruhiyati shunisi bilan hayratlanarliki, u hech qachon tarixiy voqealar, muhim hodisalar, ibratli faktlarga loqayd qaramaydi yoki uni shunchaki bilish bilan qanoat hosil qilmaydi... Odamlar qalbidagi bu ma`naviy ehtiyojni san`atkor adib o`z paytida tuyib, shunday bir badiiy olam kashf etadiki, u ko`zgu yanglig` ajdodlarimizning haq-huquqi, ozodligi yo`lida olib borgan mardonavor kurashini tiniq aks ettiradi. Zero, tarixiy voqea-hodisalar san`atkor qalamining kuchi bilan “tiriltirilmasa”, o`tmishimiz nihoyatda qashshoqlashib, xira tortib qolgan bo`lur edi”¹.

Ushbu iqtibosdan ma`lum bo`lishicha, badiiy asarda tarixiylik va badiiylik tamoyillari bir butun holda, o`zaro mushtarak tarzda aks etsagina maqsadga etish mumkin. Tarixiy haqiqat har qancha ibratli va hayratlanarli bo`lmasin, u adiblar qalami ostida qayta yaratilar ekan, ma`lum ma`noda bugungi kun bilan, davr va shaxs muammosi bilan bog`lanmasa, to`la ma`noda ma`rifiy va estetik quvvatga ega bo`lolmaydi. Qolaversa, tarixiy mavzuda asar yozayotgan adib muayyan adabiy janr doirasida ish ko`radi va bu janrga mansub asar badiiylik talablari va mezonlari darajasida yaratilsagina muvaffaqiyat qozonishi mumkin. Bizningcha, tarixiy romanlarga ham xuddi shunday badiiylik mezonlari asosida yondashuv zarur. Demak, yozuvchi biron bir tarixiy mavzuga qo`l urar ekan, bu tipdagi asar yaratishning o`ziga xos jihatlarini, ijodkorlik mas`uliyatini chuqur anglashi, tarixiy davr voqeligi va tarixiy shaxs ruhiyatini yaxshi o`zlashtirgan bo`lmog`i shart.

Adabiyotshunos olim S.Mirvaliev to`g`ri ta`kidlaganidek, “yozuvchi tarixchi yaratgan asar asosiga ham suyanadi, nima bo`lganligini tarix fanidan o`rganib, uning qanday bo`lganligini badiiylashtiradi. Ya`ni hayotiy haqiqatlardan badiiy haqiqat, san`at haqiqatini keltirib chiqaradi”². Darhaqiqat, ijodkor tarixiy mavzuda

¹ Шермухамедов П. Тарихчи ва ижодкор нигоҳи // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1977. – №3. – Б. 205.

² Мирвалиев С. Ўзбек романи. – Тошкент: Фан, 1969. – Б.116.

asar yozishga kirishar ekan, u faqat tarixiy faktlargagina suyanib qolmasdan, balki ulardan ijodiy foydalanib, olim qayd qilganidek, “romanga xos fabula, hatto detallashtirish ham roman asosida turuvchi bosh g`oyaga bo`ysundirilishi, uni chuqurlashtirish uchun xizmat qilishi lozim bo`ladi”¹.

Istiqlol yillarida yaratilgan romanlarda voqelikni tarixan xolis, haqqoniy tarzda aks ettirishga intilish kuchaymoqda. Ayni chog`da, asardagi tarixiy shaxslar obrazi talqinida adiblarning o`ziga xos badiiy-estetik kontseptsiyasi, poetik tafakkurining namoyon bo`lishi hozirgi o`zbek nasrining milliy xususiyatlaridan biriga aylanib bormoqda. Istiqlol davriga kelib o`zbek tarixiy romanchiligida ifoda shakli va falsafiy mohiyatiga ko`ra rang-barang asarlar dunyo yuzini ko`rmoqda. Biroq, afsuski, romanchilikka xos ushbu taraqqiyot tadrijiga bugungi kun tanqidchiligi xolis bahosini etarlicha berolmayotir.

Zero, keyingi yillar tarixiy romanchiligida o`zining munosib o`rniga ega bo`lgan yangi romanlar talaygina. O`ziga xos badiiy talqin usuli va voqelikni aks ettirish mezonlarining originalligi bilan alohida ajralib turadigan Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” nomli tarixiy romani ham shu jihatdan xarakterlidir².

P.Qodirovning mazkur romani temuriylar tarixining keng xalq ommasiga unchalik ma`lum bo`lmagan qorong`i sahifalarini aks ettirishni o`ziga maqsad qilib olgani bilan ahamiyatli. Roman voqeasi Shohruh Mirzoning o`z suyukli malikasi Gavharshod begimga atab qurdirgan mahobatli qasrning ta`rifi bilan boshlanadi. Bog`i Safed (Oydin bog`)ning qoq o`rtasida oq marmardan qurilgan ushbu qasr temuriylar shon-shavkatini ko`z-ko`z qilish bilan birga asarning bosh qahramoni Gavharshod begimning temuriylar sulolasida tutgan mavqei haqida ham muayyan tasavvur uyg`otadi. Gavharshod begim Shohruh Mirzoning suyukli malikasi bo`lishi bilan birga Mirzo Ulug`bekdek jahonga mashhur olimni voyaga etkazgan ona hamdir. Gavharshod begim asarda Movarounnahrni qirq yilga yaqin adolat bilan boshqargan Sulton Ulug`bekning oqila maslahatgo`yi sifatida ham namoyon

¹ Kўrsatilgan asar. – Б.119.

² Қодиров П. Она лочин видоси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.239.

bo'ladi. Shu bois romanda davrga xos o'zaro toj - taxt talashuvlari, temuriylar o'rtasidagi nizolar va ularning bir - biriga bo'lgan adovatлари Gavharshod begimning nozik qalbini larzaga soluvchi iztiroblar bilan uyg'un holda tasvirlangan.

Asarda Amir Temur davlatining emirilishi jarayonida ro'y bergan muammolar, ichki nizolar va taxt talashishlar natijasida temuriylar shajarasining birin-ketin inqirozga yuz tutishi bilan bog'liq fojealar ishonarli lavha va epizodlar, psixologik talqinlar orqali mahorat bilan chizilgan. Ayniqsa, Gavharshod begim obrazi tasvirida chuqur ruhiy kechinmalar hayotiy, badiiy yuksak ifoda etilgan. Yozuvchi Gavharshod begimni suyakli kelin, vafodor yor, mehridaryo ona sifatida kitobxon ko'z o'ngida jonlantirar ekan, o'zbek ayoli, o'zbek onasiga xos barcha ezgu xislatlarni uning siymosida mujassamlashtirishga harakat qiladi.

Muallif romanda Gavharshod begimning temuriylar xonadoniga kelin bo'lib, ilk qadam qo'yish onidagi shukuhli damlarni, uning poyqadami nafaqat Shohruh Mirzo xonadoniga, balki butun temuriylar sulolasi, qolaversa, ona yurtga baxt olib kelishiga ishora sifatida hayajon va zavq-shavq bilan tasvirlaydi. Adib Amir Temurning keliniga qarata: "Bizning xonadonga qo'ygan poyi qadamingiz qutlug' bo'lsin, bolam!"¹ deyishi bilan o'z shavkati va avlodi vorisiyligining bardavomligi uning ham zimmasida ekaniga ishora qilganiga e'tibor qaratadi.

Garchi o'zbek adabiyotida Gavharshod begim obraziga ilk marotaba murojaat qilinmayotgan bo'lsa-da (ma'lumki, M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek", O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinası" nomli asarlarida ham bu obraz tasvirlangan bo'lib, ularda davr talablariga ko'ra biryoqlama yondashuv etakchilik qilgan), Pirimqul Qodirov asarida Gavharshod begimga xos ezgulikka yo'g'rilgan insoniy tuyg'ularning badiiy talqini o'quvchini sehlab, qahramon siymosining yangi-yangi qirralaridan hikoya qiladi. Asarda tasvirlangan obrazlar mohiyatidagi chuqur falsafiy mushohada, teran ruhiy tahlillar o'ta nozik did va mahorat bilan asar badiiyatiga singdirilganligi diqqatga sazovor. Ayni fikrimizni munaqqid U.Normatovning quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi: "Yangi romandagi

¹ Қодиров П. Она лочин видоси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.4.

Gavharshod begimning shijoati, donishmandligi, iztirobga to'la dil rozlari bilan tanishganda tarixda shunday tabarruk onaxonlarimiz o'tganidan ko'nglingiz ko'tariladi. Kezi kelganda aytib o'tay: 60-70-yillarda yaratilgan ayrim asarlarda, hattoki ulkan alloma M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida muayyan sabablarga ko'ra bu buyuk siymo obrazi bir oz biryoqlama, o'ta mutaassib ayol tarzida talqin etilgan, unda oqpadar Abdullatifga moyil, buyuk olim Ulug'bekka zid qo'yilgan edi. Romanda esa bu tarixiy siymoning asl qiyofasi ochiladi: u ko'pni ko'rgan donishmand, tadbirkor, shijoatkor kayvoni onaxon sifatida gavgdalanadi"¹.

Adabiyotshunos olim to'g'ri qayd etganidek, asarning har bir bobida Gavharshod begim obrazining yangi qirralari, o'ziga xos jihatlari ochila boradi. Gavharshod begim tarix kechmishida ro'y beradigan bo'lajak fojeani avvaldan sezgandek, Abdullatifning fe'l-atvorida bobosi Xalil Sultonga xos xususiyatlar borligidan, bir kunmas bir kun uning ana shu fe'li o'z qilmishini qilishi mumkinligidan doimo xavotirda yuradi. Hatto Abdullatifning o'z padariga xiyonat qilishi mumkinligini qalban his qilgan. Gavharshod begim: "Ixtiyoriddin qal'asida bir yil tinch yotsin. Vasvasaga beriladigan odati bor. Tabiblar davolasin. Mayli, ahli harami ham yonida bo'lsin. Qal'ada shohona xonalar bor. Maydan boshqa nozu ne'matlar muhayyo qilingay. Biror yilda Abdullatif shifo topib, ehtimol fe'li ham o'zgarar. Ungacha alg'ov-dalg'ovlar ham bosilgay. Mirzo Ulug'bekning tinchini o'ylab shu taklifni qilmoqdamen. Borib ayting, janob elchi, men o'g'linga faqat yaxshilik istaymen!"³, – deya xavfning oldini olishga xarakat qiladi. Bu xatti-harakatlar Gavharshod begimning uzoqni ko'ra oladigan zukko ayol sifatida xarakter qirralarini namoyon qiladi.

Farzandlari, keyinchalik nevara-yu evaralari o'rtasida tinimsiz davom etgan nizolar tufayli Gavharshod begim og'ir azob-uqubatlarga, alamli o'y-mushohadalaru cheksiz iztiroblarga duchor bo'ladi. Bu ruhiy dramatizm chuqur psixopoetik talqin va real tarixiy negizga ega bo'lganligi bois, hech shubhasiz, kitobxonni ham befarq qoldirmaydi. Adibning tarixiy voqelikni badiiy to'qima

¹ Норматов У. Гўзал инсон мадҳи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1998. – 19 июнь.

³ Қодиров П. Она лочин видоси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.60.

bilan uyg'unlashtirgan holda obraz yaratish usuli o'zining ko'p yillik tadrijiy taraqqiyotiga ega. Chunki Pirimqul Qodirov sho'ro davridayoq boburiylar sulolasi haqida "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" kabi romanlarini yuksak mahorat bilan yaratgan edi. Bu asarlarida Bobur va uning avlodlarining tarix oldidagi buyuk xizmatlari ham, shuningdek, Umarshayx mirzo o'limidan so'nggi voqealar tasviri bilan boshlanib, to sevimli farzandlari qismatigacha bo'lgan katta davrni aks ettiruvchi voqealar fonida Bobur va uning avlodlari hayoti butun murakkabligi, iztirobu o'rtanishlari, qalb jarohatlari, yuksak harbiy va ijodiy salohiyati, inja tuyg'ulari hamda fojeaviy kechmishi bilan haqqoniy, tarixiylik va badiiylilikning yuksak uyg'unligida bitilgandir.

Yozuvchining "Ona lochin vidosi" romani istiqlool tufayli qo'lga kiritilgan imkoniyatlar natijasida, ya'ni badiiy tafakkurdagi yangilanishlar jarayonida Amir Temur obrazining tarixiy-ma'naviy asosini butun bo'y-basti bilan ko'rsatish ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Amir Temurning harbiy salohiyati, mamlakatda o'rnatilgan kuchli tartib-intizom, yuksak milliy g'urur va buyuk sarkardaning ko'ngil chamaniga xos rang-barang chizgilar asarda o'ziga xos tarzda tasvirlangan. Asar o'zining xronologik qamroviga ko'ra avvalgi romanlaridan farq qiladi. Asar Amir Temurning suyukli farzandi Shohruh Mirzo bilan uning rafiqasi Gavharshod boshlanib, to Husayn Boyqaroning saltanat taxtini egallashi va Alisher Navoiyning vatanparvarligini aks ettiruvchi lavhalar bilan nihoyalanadi.

Katta bir davr voqealarini qamrab olgan romanda hayot haqiqati va tarixiy shaxslar qismati tarixiylik tamoyillari asosida hayotiy, badiiy yuksak, ravon uslubda, falsafiy mushohadalarga boy tarzda ifodalangan. Asar tili g'oyat shirali, go'zal tashbehu ramzlarga boy, ruhiy kechinmalar tasviri rang-barang va o'qimishlilik bilan muallif mahoratini to'la namoyon qiladi.

«Romandan o'zga deyarli barcha adabiy janrlarda inson tasvirga olingan voqea-hodisalarga ilova edi. Negaki, bu janrlardagi asarlarda voqea-hodisa – sabab, inson – oqibat, nari borsa, ishtirokchi tarzida aks ettirilardi. Badiiy tasvir uchun inson shaxsi, uning o'ylari, ruhiyati emas, balki xatti-harakatlari muhim edi.

Alohida olingan odam, uning taqdiri, o'ylari, kechinmalari faqat romandagina chuqur va atroflicha tekshirila boshlandi. Uning shaxsiga, tuyg'ulariga e'tibor kuchaydi. Tafsilotlar, voqea-hodisalar inson ruhiyatining natijalari tarzida qarala boshladi. Shu tariqa romanda odam sabab maqomiga ko'tarildi. Unda shaxsning murakkabdan-murakkab, chigaldan-chigal, betartibdan-betartib ruhiyati aks ettirila bordi»¹, - deb yozadi adabiyotshunos-olim Q.Yo'ldoshev. Darhaqiqat, tarixda qondosh avlod vakillari, ya'ni og'a-inilar, ota-bolalar, amakivachcha va tog'a-jiyanlarning toj-taxt talashib bir-birlariga qilich ko'tarib, ayovsiz urush olib borishi voqealari ko'p bora kuzatilgan. Temuriylar sulolasida ro'y berayotgan shunday voqea-hodisalar sabab Gavharshod begim hamisha iztirob iskanjasida yashaydi. Romandagi ramziy timsol–ona lochin o'rtanishlari aslida Gavharshod bегinning qalb faryodlariga bir ishoradir. Yozuvchi ushbu haqiqatni asarda ona lochin sha'niga Amir Temur tomonidan berilgan ta'rifni eslatish orqali aks ettiradi: “Yodingizda bormi, Hazrat otam layoqatli nevaralar tarbiyasini kayvoni xotinlari Saroy Mulk Xonimga topshirgan edilar. Rahmatlik Bibi Xonimni otam “ona lochin” deb ulug'lar edilar. “Avlodlarimni lochinday yuksakka parvoz etadigan qilib tarbiyalang!” derdilar”².

Shohruh Mirzo tomonidan aytilgan ushbu eslatma Gavharshod bегinning zimmasiga juda muhim vazifa yuklanayotganligini ma'lum qiladi. Biroq, farzand, nevara va evaralarning har biri o'ziga xos tabiati, ruhiyati va istaklari bilan turlicha bo'lishi oqibatida yuzaga kelgan muammolar oldida ona ojiz qoladi. O'zaro qirg'in barot jangiga kirishgan jigargo'shalarining taqdiridan xavotirlangan ona qalbi o'rtanadi. Negaki, g'olib ham, mag'lub ham uning o'z jigargo'shasi, yuragining bir parchasi. Obrazli aytganda, u barmog'ini tishlasa ham og'riydi, bu barmog'ini tishlasa ham...

Asar so'nggida kishi qalbini larzaga soladigan fojea ro'y beradi: Gavharshod begim – “ona lochin” umri poyonida xo'rlanib, evaralari tomonidan vahshiylarcha o'ldiriladi. Bu fojeali o'lim o'sha davridayoq ko'pgina olim va tarixchilarning

¹ Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Т.: Янги аср авлоди, 2006. –Б.69.

² Қодиров П. Она лочин видоси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.22-23.

qalbini larzaga solgan edi. Chunki temuriylar sulolasiga mansub shahzodalarning saltanat uchun o'zaro kurashlari avj olganiga qaramay, ular azaldan o'z onalari, ayniqsa, Gavharshod begimga o'xshab saltanat ishlarida ham benazir maslahatchi bo'la olgan oqilalarni g'oyat qadrlashgan. Shuning uchun ham "ona lochin"ning o'limi go'yoki temuriylar saltanatining kelgusi halokatidan darakdek dahshat kasb etadi.

Romanning o'zida ham bunga ishoralar mavjud.

"Amir Temurning vafotlaridan keyin uning buyuk saltanati qanday parchalanib ketganidan xabarlaringiz bor. Shohruh Mirzo o'g'limiz Ulug'bek bilan birga yagona markaziy davlatni qanday qayta tiklaganlariga men guvoh bo'lganman. Ular doimo ilmu ma'rifat ahliga, halol odamlarga tayandilar. Barcha temuriylarga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'ldilar". Ushbu satrlarni o'qigan kitobxon yuksak taraqqiy etgan buyuk saltanatning inqirozi boisini anglatganday bo'ladi.

Adabiyotshunos Mixli Safarov bu asar haqida yozarkan: "Roman faqat Gavharshod begim fojeasi to'g'risida emas. Chunki Gavharshod begim qanoti ostida Abdulatifday, Abusaidday vahshiy kimsalargina emas, balki Mirzo Ulug'bekday, Alisher Navoiyday, Husayn Boyqaroday ilm-fanni, adabiyot va san'atni, bunyodkorlikni yuksak cho'qqilarga ko'targan buyuk zotlar ham kamol topgan. Romandagi Qaqnus qushi ularning timsolidir",¹ –degan fikrni bayon etadi.

Olimning ushbu qarashlari bir jihatdangina to'g'ri: darhaqiqat, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Husayn Boyqarodek jahoniy daholarni kamol toptirgan zotning qismati temuriylar saltanati tarixida boshqacha kechishi kerak edi. Biroq, tarix g'ildiragini chetga burib bo'lmaydi, u shafqatsiz ravishda shunday hukm qilgan ekan, adibning vazifasi mana shu hayotiy fojeani etishtirib chiqargan sabablarni chuqur tahlil qilishdan iborat edi. Romanda ayni shu masala adib diqqat-markazida turuvchi masalalardan biridir. Gavharshod begimning nazarida uning bir qanoti Abdulla Mirzo bo'lsa, ikkinchisi Abulqosim Bobur edi. Ularning har ikkalasi ham mamlakat obodligi va ilm-fanning rivojiga e'tibor berishda onaga

¹ Сафаров М. Улуг Она қиссаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2004. – 19 ноябрь.

qanot bo'lishdi: "Necha yillar men bu zolimlar ulusidin qanotim boricha uchib qochdim. Ammo bir qanotim Samarqandda kuydi, yana bir qanotim Hirotda kuydi, endi, mana, qanotsiz qushdek arosatda qoldim. Ammo hamon hayotim boricha yugurib, haq taolo dargohiga ruhimni pok etkazib borish harakatidamen"¹.

"Ona lochin vidosi"da lochin shunqorlari onasining o'limiga sababchi bo'lgani asosli ko'rsatib berilgan. Asardagi "lochin" va "shunqorlar" timsoli orqali P.Qodirov badiiy tajribada u qadar yangilik bo'lmagan otalar va bolalar munosabatiga yangicha nuqtai nazardan e'tibor qaratadi. Biroq, ayni mana shu masalaning badiiy talqinida yozuvchi boshqa asarlarda uchramaydigan o'ziga xos echimni topganki, bu ona siymosining yangicha poetik mazmun kashf etishi bilan belgilanadi. Asarda "Ona lochin" nafaqat o'tmish ajdodlarimiz vakili, balki ular an'anasini avlodlar ruhiga singdirish uchun ham xizmat qiladigan markaziy qahramondir. Bu obraz, bir tomondan, milliy romanchiligimizda ko'p bora tasvirlanganidek, o'zbek onalariga xos barcha insoniy tuyg'ularni mujassamlashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, millat tarixiga daxldor buyuk shaxslar qismatiga javobgar inson sifatida ham ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Gavharshod begim obrazida onalik qalbi bilan tarix oldidagi mas'uliyat hissi uyg'un tarzda tasvirlangan. "Ona lochin" o'z "shunqor"larining kelajakda ham yashab qolishi uchun qayg'uribgina qolmay, balki millat tarixi va taqdirida chuqur iz qoldirgan temuriylar sulolasining bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish uchun muhim tayanch nuqtasi ekanini anglash imkonini ham beradi. Zero, ana shu nuqtaning qay tomonga og'ishi va faoliyat yo'nalishi, ma'lum ma'noda, avlodlar qismati va millat tarixi uchun ham ahamiyatli bo'lishi mumkin. Yozuvchi mana shu g'oyat muhim, diqqatga sazovor nuqtani sof milliy o'zanda, temuriy shahzodalarning o'z onalariga bo'lgan haqqoniy munosabati fonida ko'rsatib bera olgan.

Holbuki, Mirzo Ulug'bek – Abdulatif munosabati orqali temuriylar xonadonidagi ota va bolalar qismatining fojeali tomonlari aks etgan bo'lsa,

¹ Қодиров П. Она лочин видоси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.168.

Gavharshod begim taqdiri nafaqat ona va bola munosabati, balki millat va uning tarixini yaratuvchilar o'rtasidagi chigal muammolar silsilasi ham ramziy bo'yoqlarda tasvirlanganki, bu yozuvchining tarix saboqlarini naqadar teran anglay va chuqur tahlil qila olishidan dalolat beradi. Eng muhimi, yozuvchi tarixning achchiq o'tmishidan bugungi kun uchun ahamiyatli bo'lgan ma'rifiy xulosalar chiqara oladi. Roman shu jihati bilan muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Romandan kelib chiqadigan ushbu tarixiy saboq nafaqat temuriylar saltanati uchun, balki millat tarixidan hikoya qiluvchi boshqa sulolalar qismatini anglashga xizmat qilishi mumkinligi ham nazarda tutilgan holda tasvirlangan. Asarda aks etgan ushbu tarixiy voqealar orqali biz temuriylar davlatining parchalanishi millat tanazzuliga ham, temuriyzoda ayollarning qismatiga ham cheksiz azob-uqubatlarni olib kelganligini ko'ramiz. Jumladan, asar boshida tasvirlanishicha, Amir Temurning o'limidan so'ng uning suyuqlik xotini Bibixonimga nisbatan ham suiqasd uyushtirilgan. Bibixonimning o'limi kitobxon uchun yana bir fojeali tasvir bo'lib, romanda shundan so'ng muntazam ravishda temuriylar sulolasiga mansub ayollar oxir – oqibat azob va iztirob iskanjasida fojeali o'lim bilan yuzlashaverganligi tasvirlanadi.

“Ona lochin vidosi” romani o'quvchida Gavharshod begimga nisbatan ham mehr, ham faxr, ham achinish tuyg'usini uyg'otadi. Shuningdek, tarixning achchiq qismati, temuriylar davlatining emirilishiga sabab bo'lgan omillar to'g'risida mushohoda yuritishga undaydi. Natijada yozuvchining badiiy mahorati va betakror adabiy uslubi haqida muayyan xulosalarga kelish imkoniyati yaratiladi.

Pirimqul Qodirov tarixiy romanni yozichga undagan kuchning asosiy sababini quyidagicha izohlaydi. “Zamonaviy ehtiyojlar bizni tarixdan saboq olishga undaydi. Bugungi odamzotni bezovta qilayotgan katta muammolar o'tmish zamonlarda boshqacha shakllarda va o'zgacha miqyoslarda bo'lsa ham ajdodlarimizning boshiga tushgan. Ular bu muammolarni tushunish va hal qilish yo'lida juda ko'p ma'naviy izlanishlarni boshidan kechirganlar va o'z tarixiy tajribalarini bizga meros qilib qoldirganlar. Ana shu muammolar orasida inson zotiga juda ko'p azoblar bergani turli davrlar va mafkuralar adovaditan kelib

chiqadigan qirg'in urushlardir. Ayniqsa, hozirgi dunyoda hokim bo'lish ishtiyoqida yurgan yovuz kuchlarning sovuq urush uchqunlarida dahshatli atom alangasini yoqishga intilayotgani odamzot hayotini xavf ostida qoldiradi. Bu xavfni bartaraf etish ishiga butun dunyoning taraqqiyparvar kuchlari va barcha xalqlarning eng ibtarli tajribalari safarbar etilmoqda. Shu umuminsoniy safarbarlikka bizning ajdodlarimiz orttirgan tarixiy tajribadan ozgina bo'lsa ham hissa qo'shish niyati mazkur romanning yozilishiga turtki berdi"¹.

Adibning shu fikrlari bevosita "Ona lochin vidosi" romaniga ham tegishlidir. Negaki, badiiy to'qima ijodiy niyatining tug'ilishidan boshlanadi deyilganda, eng avvalo obrazli g'oya ko'zda tutiladi. Chunki, yozuvchi bugungi zamonaviy ehtiyojlarni ham, tarix saboqlarini ham badiiy tahlil qilish jarayonidan olgan tasavvurlaridan ta'sirlangach, yozilajak romanga asos bo'lgan bosh g'oyani topib oladi. Ushbu g'oya shubhasiz, "Ona lochin vidosi" romanida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Ko'rinadiki, badiiy ijod jarayonida yozuvchining hayol erkinligikatta kuchga ega. Badiiy to'qima vositasida tarixiy voqealar saralanadi, davr ruhini bera oladigan tipik voqelik asarga olib kiriladi. Tarixiy shaxslar xarakterining ba'zi bir tomonlari o'sha davr haqiqatidan kelib chiqib umumlashtiriladi, to'ldiriladi, boyitiladi. Shu tariqa tarixiy haqiqat va badiiylik mutanosibligi hamda voqealar silsilasi davomida obrazlilik qiyofasi yuzaga keladi:

"Shohruh Mirzo yulduzlar jamoliga mahliyo bo'lib, kechasi allamahalgacha rasadxonada qolib ketadi, qorong'ulik quyuqlashgandan keyin sobita yulduzlar yirik-tirik bo'lib ko'rina boshlaydi. Oddiy ko'z bilan ko'rinmaydigan minglab mitti yulduzlar rasadxonadan charaqlab ko'zga tashlanar edi. Osmonda yulduzlar bu qadar ko'p ekanligini va bunchalik tig'iz joylashganligini Shohruh umrida birinchi marta ko'rdi. Qutb yulduz, dubbi akbar, sumbula va boshqa tanish yulduzlar shunchalik yorqin nur sohib porlar ediki, ulardagi joziba va tengsiz bir poklikni yurakdan his qilgan sari Shohruhning qalbi ham ilohiy bir nurga va go'zallikka to'lib, butun borlig'ini yayratadi.

¹ Zayniddinova A. Tarixiy romanlarda shohlar timsoli. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. –T.: 1999. 72-bet.

O'g'li Ulug'bekning samoviy go'zallikka bunchalik mehr qo'yganini va yulduzlar tadqiqotiga bunchalik vaqt sarflashi bejiz emasligini Shohruh Mirzo endi tushundi-yu, undan o'tgan xatolikni kechirdi. Xufton kech bog'i Dilkushoga mamnun bir qiyofada qaytib keldi. Uni xabgohda kutib o'tirgan Gavharshodbegimning huzuriga kirdi-da:

Siz haqsiz, begim! – dedi. – Bu urushu, yurushlar, toj-u taxtlar bari o'tkinchi. Tarixda qolsa, o'g'limiz yaratgan rasadxona-yu, Ziji Ko'ragoniylar qolur. Men bunga shu bugun imon keltirdim!

Shohruh Mirzo o'sha kecha Hirotga yana bir chopar yubordi. Hirotidan yo'lga chiqqan Boysunqur Mirzo Amudaryo bo'yida bu chopar keltirgan maktubni oldi. Unda Shohruh Mirzo Samarqandni yana Ulug'bek ixtiyorida qoldirganini yozgan edi. Boysunqur Mirzo otasining topshirig'i bilan daryo bo'yidan orqasiga qaytib, Hirotga ketdi".¹

Otasi Shohruh Mirzo behisob is'tedod egasi, suyuqli o'g'li Ulug'bekning ilmi nujunga mehr qo'yish sabablarini yuqoridagi parchada yozuvchi mohir aql-idrok bilan tasvirlaydi. Bu o'rinda o'ziga yoqadigan samimiy hislatlarni ham Shohruh Mirzo ruhiyati orqali aks ettiradi. Jumladan, o'sha ixcham tafsilotda Gavharshodbegimga mag'rurlanib, shodlanib aytgan ushbu e'tirofi naqadar haq ekanligini bugungi kunga kelib butun dunyo tan oldi. Shohruh Mirzo shunday degan edi: "Tarixda qolsa o'g'limiz Ulug'bek yaratgan rasadxona-yu, Ziji Ko'ragoniylar qolur. Men bunga shu bugun imon keltirdim!"

Demak, romandagi ko'zlangan niyat ruhiga mutanosib tasvir tamoyillarining romanda ustuvor bo'lishini muallifning o'z tanlagan ob'ektlariga bo'lgan munosabatidan, poetik ifodaning esa shunga muvofiqligidan keltirib chiqarish mumkin bo'ladi. Ana shundagina xarakterlar tasviridagi bo'yoqlar nisbati ham kitobxonga e'tiroz qoldirmaydi. Yozuvchi estetik idealining pozitiv tarzda ifodalanishi qahramon tabiatiga xos emotsional quvvatning to'la harakatga keltirilishi bilan bog'liqligi anglashiladi.

¹ O'sha asar. 54-55 betlar.

Yozuvchi Ulug'bek Mirzo xarakterini yaratish orqali davrning katta bir haqiqatini turli ellar, turli mafkuralarga daxldor kuchlarni birlashtirib, yirik bir markazlashgan davlat tuzishning nihoyatda mushkulligini sahifama-sahifa ocha boradi. Hamda Ulug'bek siymosida davrning etuk adabiy tipini yaratishga intilgan. U shunday bir muhitda harakatlanadiki, muhit uning orzularining, tuzgan rejalarining amalgam oshuviga yo'l bermaydi, ammo ilmiy maqsadlarni ro'yobga chiqarishga bel bog'laydi. Yana shularni keltirish mumkinki, real hayotning o'zida pok vijdon egasi bo'lgan sodda, samimiy, ta'sirchan, e'tiqodiga sobit, hayot go'zalligini ardoqlaydigan kishilar anchagina. Ular qalbida bunday tuyg'ular ziddiga nisbatan isyon bo'lishi tabiiy hol sanaladi. Romanda ayrim vaziyat – holatlar tasvirida qahramon bilan real vaziyat orasidagi ziddiyat keskin tus olganligi kuzatiladi. Bu hol bizningcha, yuqoridagi tipdagi qahramonlarning nonko'rlik va itoatsizlikni, g'alamislik va qalloblikni, razolat hamda qabohatni ko'rganida o'zining iztirob, nafrat, g'azab tuyg'ulari alangasini bosolmay qolishi bilan izohlanadi.

Gavharshodbegimning ruhiy quvvat manbalarini birinchidan, islomiy e'tiqod va ichki irodadan; ikkinchidan, metinday matonatdan; uchunchidan, atrofni qurshagan insonlarning mehru-sadoqatidan axtarishga to'g'ri keladi:

P.Qodirov tarixiy mavzudagi badiiy izlanishlariga o'ziga xos tarzda xotima yasab, “Amir Temur siymosi” nomli esse yaratdiki¹, bunda adib o'zining ilgari nashr etilgan badiiy asarlari orqali aytib ulgurmagan fikrlarini yoki Amir Temur obraziga xos jihatlarning roman va qissalariga sig'magan ba'zi bir qirralarini publitsist qalami bilan yoritishga harakat qiladi. Adib o'zining bu essesida Amir Temur siymosi haqidagi ba'zi g'arazli qarashlarga qarshi kurashadi, hatto tarixiy asarlarda kuzatilgan noxolislikni ham qayd etib, ular bilan jiddiy bahsga kirishadi. Ayni jihat o'zbek munaqqidlarining ushbu asar munosabati bilan e'lon qilingan maqola va taqrizlarida ham aks etgan.²

¹ Қодиров П. Амир Темур сиймоси . – Тошкент: Шарк, 2007. – 245 б.

² Расулов А. Ёғду //Меҳрга йўғрилган ижод. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, йўғрилган ижод. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2008.

Ma'lumki, istiqlol davri tarixiy romanlaridagi bu kabi sifatlar adiblarning sho'ro davrida orttirgan ijodiy tajribalari asosiga qurilgani sir emas. Garchi sho'ro mafkurasi tarixni asl haqiqatida aks ettirishga mone'lik qilgan bo'lsa-da, adiblarimiz tarixiy voqelik haqidagi fakt va materiallarni nozik kuzatishlar orqali badiiy haqiqatga aylantirish uchun imkon qadar harakat qilganlar.

Adibning mahorati shundaki, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Shohruh Mirzoning mislsiz azoblar ijjanjasida qolish lavhalarini yuksak muhabbat va iste'dod bilan tasvirlashga yerishgan. Tahlil davomida kuzatishimizcha "Ona lochin vidosi" romanidagi Amir Temurning vafiti bilan bog'liq bo'lgan voqealar keltirilgan. Bu lavhalarda yozuvchi shunday yo'l tutganki, "Shohruh va Gavharshodbegim"da yesa yanayam o'zgacha qiyofa kashf yetgan. Ayni paytda Amir Temurning davlatni boshqarish siyosatini ham o'ziga xos tarzda ifodalashga yerishgan. Har ikkala romanning Amir Temur so'nggi lahzalarini tasvirlagan o'rinlarda ikkinchi romanda yanayam boshqacharoq mohiyat kasb yetganligiga guvoh bo'lamiz:

"Suyukli nevarasi Muhammad Sulton bevaqt vafot yetganda Sohibqiron bobsi juda qattiq musibat chekkan yedi. Akasiga o'xshabroq ketadigan polvon tahlit Pirmuhammad Mirzoni bobsi bag'riga bosib yig'lagan yedi:

Yendi sen akangning o'rnini olgin, bolam! Akangni valiahd qilaman degan yedim. Yendi iloyo akangning o'rniga sen valiahd bo'lgin!

Qulog'ini ding qilib bu so'zlarni yeshitgan beglar-begi Ahmad Tusiy yonidagi xos hakim Habibulla Tabriziy va Ma'sud Simnoniyga ma'nodor ko'z tashlab oldi. Shu uchovlari Sohibqironning bu so'zlarini dillariga mahkam tugdilar. Amir Temur O'trada o'lim to'shagida yotganida ular Pirmuhammad Mirzoni Sohibqironga iliq so'zlar bilan yeslata boshladilar.

Ularning asl maqsadlari "Xalil Sultonni valiahd bo'lsin" degan gapni Sohibqironga mutlaqo aytib bo'lmasligini bilishardi. Shohruhni valiahd qilmaslik uchun Pirmuhammad Mirzo nomzodini qo'llab-quvvatlash vaqt yutish uchun qilinadigan bir chora yedi"

Keltirilgan parchadan shuni anglash mumkinki, buyuk sarkarda Sohibqiron Amir Temurning olamdan o'tishi saroydagi dushmanlarining o'z maqsadlarini amalgam oshirishning, boshqacha aytadigan bo'lsak, o'zaro totuvkikni, hamjihatlikni parchalab ichki nizolarni keltirib chiqarish uchun yeng qulay, maqbul vosita yedi xalos. Chunki Amir Temur har bir ishni ipidan-ignasigacha kengashib, yetti o'ylab hamda so'nggi qarorni har tomonlama to'g'ri qabul qilishga odatlangan, hayot shioriga aylantirgan yedi. Bir tomondan ikkinchi kitobda to'ldirilgan ushbu o'rinlar yozuvchi badiiy niyatining yillar o'tishi bilan o'rganib, qayta-qayta fikr-mulohazalar yuritib, pishitib, mukammallashtirib keyin qog'ozga tushirgan jihatlar desak aslo yanglishmagan bo'lamiz.

Aytish mumkinki, Amir Temur bobimiz murakkab bir zamonda yashashiga qaramasdan, porakanda yurti birlashtirib, qudratli davlat bunyod yeta olgan edi. U yurt ravnaqi, ilm va tamaddum rivoji uchun tarixiy shart-sharoitlar yaratib olam tarxiga tahrirlar kiritdi. Sohibqironning ziddiyatlardan holi bo'lamagan hayoti, favqulotda salohiyati, mardligi va jasorati badiiy tadqiqi ham avlodlarga ibrat bo'lishga munosibdir.

Sohibqiron qalbida yurtga tizginsiz muhabbat, birlashishga intilish, davlat shukuhini mustahkamlash, uning sarhadlarini muhofaza qilish, qudratini oshirish, fidoiylik, bunyodkorlik, do'stga sadoqat, dushmanga nafrat, so'zga sobitlik, poklik, yelga, oilaga mehr, sohibi ilmga qayishish singari o'nlab his-tuyg'ular mujassam bo'lganligi shubhasiz. San'at asari kitobxon qalbidan joy olmog'i, tarix oldidagi muqaddas burchini ado yetmog'i uchun mazkur jihatlarini xolis ifoda yetmoqlik, ya'ni yurt beginning hayoti va faoliyatini adolat yuzasidan, milliy manfaat nuqtai nazaridan aks yettirish ham tarixnavis adib oldida ko'ndalang turar yedi. Ana shu uzoq izlanishlar yozuchini chin haqiqatni anglashga yetakladi. Jumladan, ikkinchi romanda yuqoridagi mulohazalarning amaliy ifodasini, o'ziga xos qirralarini uchratishimiz mumkin:

“Sohibqiron o'n yoshdagi Ulug'bekka yuzlandi:

– yendi meni Ulug'bek bilan yolg'iz qoldiringlar. Shu nevaramga aytadigan gapim bor...

Ulig`bek bobosi bilan yolg`iz qolganidan keyin uning o`ng tomoniga o`tib, qulog`ini bobsiga yaqin tutdi.

– Otangga o`xshaysan Ulug`bek. Shohruhni sog`indim. Qani hozir yonimda bo`lsa?!

– Otam ham sizni jondan aziz ko`rardilar, hazratim!

– Ahmad Tusiy menda yomon shubha uyg`otgan yedi. Karaxt qiladigan dori ham berdimi nima balo?! Yendi sal hayolim tiniganday bo`layapti. Men hozir bir gap aytaman. Yaxshi yeslab qol. Bir so`z qoldirmay otangga borib ayt.

– Jonim bilan aytaman

– Agar Pirmuhammad valiahdlikni yeplasa durust, yeplolmasa, hokimiyatni Shohruh o`z qo`liga olsin. Ko`pchilik bek-u sarkardalar Shohruhga moyil. Faqat aql bilan, tadbir bilan qon to`kmay ish ko`rsin. Bu gaplarni otangdan boshqa hyech kimga aytma. Xo`pmi?

– Xo`p, hazrat bobojon!”

Ma`lum bo`ladiki, yozuvchi ba`zi joylarda asar qaharamonlariga achinib, goh butun mehrini berib tasvirlaydi. Ana shu jihati bilan ham romanning tayanch markazida Shoruh va Gavharshodbegim siymosi muhim ahamiyat kasb yetadi.

“Taqdir taqazosi” bobida yesa ulug`bek Mirzoning ruhiy qiynoqlari kitobxonni ham befarq qoldirmaudi. Jumladan, ota-o`g`il suhbatlari g`oyat ta`sirchan ifodalangan. Bu yesa o`z navbatida yuksak ijodiy tajriba natijasi yekanligi aytiladi.

Adabiyoshunoslikning o`ziga xosligini jahon adabiyotida mavjud har qanday hodisalarga o`xshamaslikda, milliylik, xalqchilik, yaxlitlik, qadimiy an`analarga boylikda ko`rish ham Pirimqul Qodirov estetikasining an`anaviylikka chambarchas bog`liqligini ko`rsatadi.

Darhaqiqat, jahon tarixida o`lmas iz qoldirgan buyuk vatandoshlarimiz hayotini o`rganish, ular haqida badiiy polotnolar yaratish bizning avlod zimmasidagi ulkan burchgina yemas, balki astoydil qo`llab-quvvatlashga munosib yumushdir. Shu ma`noda yezgu niyatning ko`ngilni nurafshon yetmog`i g`oyatda

tabiiydir. Yangicha tafakkur va qarashlar asosida ulug` amir hayotini ifoda yetmoq – davr talabi hamdir.

Adib “Ona lochin vidosi”da tush ko`rish motividan xarakterlarning ruhiy holatlarini tasvirlashda foydalanadi. Romanda bir necha o`rinda tush motivini qo`llaydi va ular orqali o`quvchiga yovuzlik, ziyon-zahmat, dushman tahdidi yoki aksincha voqea-hodisalar haqida oldindan bashorat qiladi.

Tadqiqotimizda Alisher Navoiyning ko`rgan tushini keltirish g`oyat o`rinli hodisa deb o`ylaymiz:

“O`sha kuni kechasi Alisherbek Hirotida Shohruh Mirzo xonaqosida yotib qoldi. Abdurazzoq Samarqandiy o`zi yotadigan ozada bir xonani unga ko`rpa-to`shagi bilan berdi-da, uyiga ketdi.

Yarim kechagacha uxlay olmay o`y-hayolga guman Alisherbek saharga yaqin uyquga ketdi-yu, g`alati bir tush ko`rdi. Baland tepalik ustiga chiqqanda samoviy kiyim kiygan, yuzidan nur yog`ilgan, oq soqolli kalta qirchillagan bir mo`ysafid uchradi. Alisherbek unga yegilib ta`zim qilar yekan, birdan Shohruh Mirzoning keksalik paytini yesladi.

– Assalomu alaykum, xoqoni Said! – deb tizzasini yerga tirab, sajdaga bosh qo`ydi.

Mo`safid uni yerdan turg`izib, yuziga tikildi-da:

– men sizni olti yoshingizda ko`rganman, - dedi.

– Shoiralar majlisida she`rlar o`qib, hammani lol qoldirgan bola siz yemasmidingiz?

Ismingiz nima yedi?

– ismim Alisher, xoqoni Said.

– Hozir ham she`r yozasizmi?

– Goho mashq qilurmen.

– Qani bir bayt ayting!

– Meni ma`zur tuting, hazratim. Yomonlardan juda bezganman. Bayt shu haqida...

– Mayli, ayting-chi.

Parim bo`lsa, uchib qochsang, ulusdan to qanotim bor.

Qanotim kuysa uchmoqdin yugursam to hayotim bor.

– Ob-bo!: yomonlardan shunchalik bezorsiz... Ammo yaxshi odamlar ham borku.

– Bor, hazratim...

– Ularga atalgan baytingiz yo`qmi?

– Nechun bo`lmasun! Mana, hozir...

Odamiy yersan demagil odamiy

Onikim yo`q xalq g`amidim g`ami.

– Ha, borakallo! Xalq sizni qutqargay! Xalqqa fid obo`lingiz, sizni boshida ko`targay!

Bir vaqt Shohruh Mirzoning qo`lida oltin soplik durbin paydo bo`ldi. Durbinni Alisherga berib:

– Samarqand tomonga bir qarang! – dedi.

Alisher durbinni shimoliy-sharq tomonga to`g`irlab qaray boshladi.

Shohruh Mirzo kuldi:

– siz Qobul tomonga qarayapsiz-ku.

– Kechirasiz, hazratim, men o`zim Qobulga onamni izlab bormoqchi yedim.

– Balki onangiz Samarqanddadirilar!

– Bilmadim.

– Siz avval Samarqand tomonga bir qarang. Ha, ana, durbinda Samarqand minoralari ko`rindimi?

– O! Ulug` gumbazni ko`ryapman. Amir Temur maqbarasining gumbazi!

– Ha, topdingiz! Istiqbolingiz ana shunga yerdan boshlangay. Avval shu gumbazni topib boring.

Keyin onaizoringizni topgaysiz. Husayn Bayqaro bilan birga boring.

Bu gaolardan Alisherbek qattiq hayajonlanib uygʻonib ketdi. Qarasa, tong yorishgan. Xonaqodan chiqib tahorat qildi, na,oz oʻqidi. Koʻrgan tushi oddiy tush yemasligini hayolida Shohruh podshoh aytib turganday boʻldi”

Yuqoridagi tush motividan maʼlum boʻlishiga, koʻngli yomonlar dastidan aziyat chekib, aftoda holga kelib qolgan Alisherbekning onaizorini izlab safarga chiqishida hamda onasining qayerdaligini aniq bilolmay qoraxat ahvolidagi turgan pallada tushida Shohruhxonning koʻrinish berishi gʻoyat taʼsirli ifodasini topgan. Adib ushbu oʻrinda juda toʻgʻri yoʻl tutgan. Ayniqsa, buyuk siymo Shohruh Mirzoning Navoiybek dahoga gʻanxoʻrligi ikki maʼrifatparvar shaxsning ruhan yaqinligidan dalolat beradi. Alisher Navoiy koʻrgan tushini yaxshiliklar alomati deb yurak qoʻridan oʻtkazadi. Hamda huddi tushidagidek ish tutishga kirishadi. Bu kabi holatlar romanning romanning badiiy jozibasini faqatgina oshirish ayni haqiqatdir.

“Ona lochin vidosi”da mamlakatning yaxlitligi uchun parokandalikka barham berib, adolat tamoyillari ustuvor boʻlgan, markazlashgan qudratli davlatni bunyod yetish yoʻlida fidoiylik koʻrsatgan shaxs ulugʻvorligi yaxlit poyetik gʻoyaning rolini oʻtaydi. Pirimqul Qodirov butun roman davomida sohibqiron va uni qurayotgan kishilar ruhiyati shu bosh poyetik gʻoya asosida tahlil yetadi. Hozircha yorugʻlikka chiqqan ikkita romanda mukammal ishlangan talay insoniy xarakterlar taqdiriga duch kelamiz.

Yozuvchi sohibqiron taqdiri orqali ulugʻvor konsepsiyasini chuqur va betakror tarzda ochishga, ayni paytda oʻsha davrning haqqoniy manzarasini ifodalashga muvofiq boʻladi. Boshqacharoq aytganda shaxs yevolyusiyasi davrini ham tasavvur yetish imkonini beradi. Individuallik zahirida katta ijtimoiy maʼno mujassamlashganini, P.Qodirov Gavharshodbegimini ulkan ijtimoiy hodisalar ichida, fuqorolik toʻgʻrisiga yoʻgʻirib ifoda yetadi. Uning insoniy qiyofasini aslo xiralashtirib qoʻymaydi. Yana shu jihatlarni asar mutolaasi jarayonida toʻla his yetish ham mumkinki, “Ona lochin vidosi” dagi qahramonlar qaysidir xususiyatlari bilan folklor asar qahramonlarini yesga soladi. Bunday deyishimizga sabab romandagi yezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi oʻzaro kurashlar aks yettirlgan

lavhalarda uchratishimiz mumkin: “Hoji Muhammad ko`ziga yosh olib yeshik tomonga o`tdi. Ulug`bek so`nggi so`zlarini aytib ulgurishi uchun yeshikni ickaridan yopib, tutqichdan mahkam tutib turdi:

- Onam hazratlari mendan rozi bo`lsinlar! Bobo Husaynga, Ali Qushchiga, Abdullo Mirzoga, barcha yaxshiliklariga haqiqatini yetkazing! Qonli qilichlarni sindiradigan yeng zo`r kuch – haqiqatdir! Mening ruhim yozgan kitoblarimida qolgay! Shoyadki parvardigor menga umri soniy inoyat yesa!... Hayhot! Menga berilgan hayot jomining tubidan yeng achchiq qismat chiqdi! Pushti kamarimdan bo`lgan o`g`lim meni razil talonchilar qilichi bilan o`ldirmoqchi!... Na iloj! Bir o`lim hamisha boshimizda bor. Men parvardigordan to`rt mucham butunligida xor-zor qilmay omonatini olishni so`rar yedim. Shu iltijo bugun ijobat bo`lsa nachora! Bu mal`unlar meni sudrab xor qilmasinlar, yeshikni oching, mavlono! O`zim chiqay!”

Mirzo Ulug`bek yeshikdan dadil qadamlar bilan hovliga chiqdi. Ariq bo`yidagi daraxtga osilgan mash`ala charsillab yonmoqda yedi. Chilvir tutdan bir navkar ulug`bekning qo`lini orqasiga bog`laguncha u sokin turib berdi. Qilich yalang`ochlab olgan bahaybat Abbos Ulug`bekka mash`ala qarshisidan joy ko`rsatdi. Ulug`bek yuzini qiblaga qaratib: – Yo Oллоh! Adolatni o`zing o`rnatgaysen, - deb iltijo qildi.

Buning hammasini ochiq yeshik orqali kuzatib turgan Hoji Muhammad mash`ala yorug`ida yaltiragan qilich Ulug`bekning bo`yniga kelib zarb bilan urilganini ko`rdi-yu, dahshatli manzaraga bardosh berolmay ichkariga qochib kirib ketdi...

O`sha kecha marhumning jasadini kesik boshi bilan birga archadan qilingan mustahkam tobutga soldilar. Tobutni hyech kim ocholmaydigan qilib berkitdilar. Tong qorong`usida Hoji Muhammad Xusrovga janoza o`qitib, marhumni imijimida amir Temur maqbarasida dafn yetdilar. Keyin Abdullatif nomidan mahalla-ko`yda xudoyi osh berishib, “Hazratning otalari Haj yo`lida xastalanib vafot yetdilar” degan rasmiy xabar tarqatdilar”

Romanda adib Ulug`bek umrining so`nggi damlarini ichki iztiroblari bilan haqiqiy tasvirlaydi. Jumladan, kitobxonni ham ruhiy qiynoqlarga soladigan ushbu lavhalarda buyuk falakiyot ilmining ixtirochisi Ulug`bekning o`z o`g`li buyurtmasi bilan qatl yetish lahzalarini o`qiganda beixtiyor ko`zlarimiz yoshlanadi, binobarin, butun umri davomida haq va haqiqat uchun kurashgan, adolotni, hayot shioriga aylantirgan Mirzo Ulug`bek dahosiga chuqur hurmat bilan ta`zim yetish har bir o`zbekning sharaflı burchidir. Chunonchi, ulug`bekning Hoji Muhammadga aytgan ushbu xitobi ham “Qonli qilichlarni sindiradigan yeng zo`r kuch – haqiqatdir!” deyishi P.Qodirovning noyob iste`dod va mahorat yegasi yekanligidan dalolat beradi. Hayotini shon-sharaf va toj-u taxtga yerishish yo`lida tikkan hamda talay roziliklarni qilishdan ham tab tortmaydigan o`g`li Abdullatifning shoshma-shosharlik va befahmıligidan foydalanib Mirzo Ulug`bekni yo`q qilish uchun silliqqina rejalarni o`ylab topgan yedi. Bu rejalar kutilmaganda Ulug`bekni Haj safariga yuborish uchun bir vosita yedi, xalos.

II BOB. TARIXIY ASARDA MILLIY QADRIYATLAR BADIY TALQINI

Insoniyat tarixidagi eng mashhur davlat arbobi va lashkarboshilardan biri Amir Temur yashab o'tganiga qariyb etti asr to'lmoqda. Shuncha vaqt o'tganiga qaramay, Amir Temurning shaxsiyatiga, davlat arbobi va lashkarboshi sifatidagi faoliyatiga bo'lgan qiziqish ortsa ortdiki, aslo kamaygan emas. Bugungi kunda ham davlat arboblari, siyosatshunoslar, olimu-fuzalolar, yozuvchilar, oddiy odamlar o'tmishning sargaygan sahifalarini varaqlashib, Amir Temurning faoliyatini batafsil o'rganmoqdalar. Olti asr mobaynida Amir Temur haqida shunchalik ko'p asarlar bitilganki, agarda ularni bir joyga to'playdigan bo'lsak, juda ham bebaho kutubxona paydo bo'lar edi. Bu asarlar ichida Amir Temur faoliyatini holisona baholab, bu buyuk zot qoldirgan bebaho merosni to'g'ri talqin qilgan asarlardan tortib, Amir Temur faoliyatiga bir tomonlama baho berilgan noxolis asarlargacha mavjud.

So'nggi 20-30 yillarda Amir Temur va temuriylar haqida jahonda juda ko'plab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Bu asarlar o'z saviyasi va yozilish maqsadlari bilan turli tumandir.

Ayniqsa, MDH davlatlarida Amir Temur va temuriylar haqida yozilgan badiiy asarlarning aksariyati g'arazli ekani, uydirma, oldi-qochdilardan iboratligi afsuslanarlidir.

So'nggi yillarda Evropa davlatlarida ham Amir Temur va temuriylar haqida bir necha o'nlab ilmiy-ommabop va badiiy asarlar nashr etilgan. Bu asarlarga misol tariqasida frantsuz sharqshunosi Jan Pol Runing «Tamerlan», ingliz olimi va jurnalisti Jastin Marotstsining «Tamerlan», Harol'd Lembning "Tamerlan" qabilidagi asarlarini sanab o'tishimiz mumkin. Turli saviyadagi ijodkorlar tomonidan bitilgan ushbu asarlarda Amir Temur haqidagi haqqoniy fikrlar qatorida oshiqcha qora buyoqlar bilan ifodalangan sahifalar ham, bir yoqlama qarashlar ham mavjud. Ko'pincha uchini-to'rtinchi manbalarga suyangan mualliflar Amir Temur haqidagi tarixiy faktlarni sharhlashda ortiqcha his-hayajonga berilib, voqeaning asl sabab va oqibatlaridan so'z ochishni unutadilar. Bu holat ularning

o'zbek bo'lmaganligi va o'zbek xalqining milliy o'ziga xosligidan bexabar ekanligidan dalolat beradi.

Fikrimizcha, yozuvchi har qancha mahoratli bo'lmasin, boshqa millatdan chiqqan mashhur shaxslar haqida mukammal badiiy asar yoza olishi mushkul. Chunki, har bir millatgagina xos bo'lgan nozik tushunchalarni, aqida va qarashlarni faqat o'sha millatning vakiliga anglay oladi, yurakdan his etadi. Shu o'rinda bir misol keltirib o'tmoqchimiz. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Qozi Ahmad ismli hattot Qur'oni karimni o'ta kichik hajmda ko'chirib yozib, Amir Temurga sovg'a qilib keltiradi. (Aytishlaricha, bu Qur'on bosh barmoqning tirnog'icha kattalikda bo'lgan ekan)

Amir Temur xattotning ushbu sovg'asiga ko'z qirini tashlab, qovog'ini soladi va uni qabul qilmaydi. Qozi Ahmad uyiga kelib Sohibqironni nega sovg'ani qabul qilmaganligi haqida rosa o'ylaydi va oxiri sababini topgandek bo'ladi.

So'ngra, u bir necha oy mobaynida ter to'kib ulkan Qur'onni ko'chiradi va tayyor bo'lgach, aravaga ortib, yana Amir Temurning oldiga olib boradi. Amir Temur bu Qur'onni ko'rib uni quvonch bilan qabul qiladi va hattotga katta hadyalar beradi.

Bu voqeani sharhlagan rus tarixchilari Amir Temur hattot Qozi Ahmadning katta mahorat bilan ter to'kib yozgan kichik hajmdagi Qur'onni etarli tarzda baholay olmadi, deb yozganlar va Sohibqironni nimadan jahli chiqqanini anglamaganlar. Aslida, Amir Temurga hattotning Olloh so'zi Qur'oni karimni kichik hajmda ko'chirganligi ya'ni, ulug' kitobni kichik, nochor holga solinganligi yoqmagan edi. Qozi Ahmad buni anglab xatosini to'g'rilagan ekan.

Shu jihatdan qaraganimizda, biz uchun evropalik yozuvchilarning asarlaridan ko'ra, ko'proq Bo'riboy Ahmedov, Xayriddin Sultonov, Xurshid Davron, Tohir Julmatovlarning Amir Temur va temuriylar haqida yozgan asarlari qadrlidir.

Yaqinda «Sharq» nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati O'zbekiston xalq yozuvchisi, Davlat mukofoti laureati Muhammad Alining «Ulug' saltanat» nomli tetralogiya-epopeyasining yakunlovchi «Shohruh Mirzo» nomli to'rtinchi kitobini nashrdan chiqardi.

Yozuvchi Muhammad Ali Temuriylar mavzusiga birdaniga kirib kelgani yo'q. Adib dastlab sarbadorlar haqida yirik tarixiy asar yaratgan edi. Sarbadorlar tarixi Amir Temurning dastlabki faoliyati bilan uyg'unlashib ketgan va juda kam tarixiy manbalar saqlangan davrdir. Ammo shunga qaramay, Muhammad Ali sarbadorlar haqida yirik va to'laqonli asar yaratishga erisha oldi. Bundan tashqari, Muhammad Ali Amir Temur davri tarixi va madaniyatiga bag'ishlab bir necha publitsistik maqolalar ham chop qildi.

Muhammad Ali ushbu tetralogiyaning har kitobini Amir Temurning to'rt o'g'lidan biri nomi bilan ataganligi va bu to'rt shahzoda faoliyatini yoritganligi unga Amir Temur va temuriylar tarixining barcha qirralarini qamrab olish va to'laqonli yoritish imkonini bergan.

Muallif birinchi kitobni Sohibqiron hayotida o'ta muhim ahamiyat kasb etgan sana 1370 yildagi voqealarni yoritishdan boshlagan.

XIV asrning 70 yili. Bu sana nafaqat Amir Temur hayotida, balkim Movorounnahr, Turonzamin hayotida, qolaversa, dunyo tarixida ham hal qiluvchi sana hisoblanadi. Bu sananing manzarasi XIV asr yuzasida alohida bo'rtib turadi. Lekin, bu sanada hali Samarqand «er yuzining sayqali»ga aylangani yo'q edi. Ko'hna Kesh — Shahrisabz «ilm va adab qubbasi» degan sharaflı unvonga musharraf bo'lishiga bir oz vaqt bor edi. Muarrixlar Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylar o'z «Zafarnoma»larida to'lib-toshib yozgan Sohibqironning Jayxun va Sayhun ortidan boshlangan g'olibona yurishlari hali boshlangani yo'q... 1370 yil sanasi Sohibqiron boshlagan ulug' ishlarning debochasi va doyasidir.

1370 yil — Amir Muhammad Tarag'ay va Amir Temurning piri komillari ulug' donishmand Amir Kulol vafot etgan yil.

1370 yil — uzoq Makkadan yo'lga chiqqan Mir Sayyid Baraka Movarounnahrğa etib kelib Sohibqiron bilan uchrashadi. Mir Sayyid Baraka Makkayi Muazzamadan keltirgan yalov tug' va nog'orani sohibqironga hadya etadi.

1370 yil — dastlab Sohibqiron bilan birga ko'pgina issiq-sovuqlarni baham ko'rgan, so'ngra, xoinlik va ochko'zlik yo'liga kirgan Amir Husayn Sohibqiron tomonidan mag'lub etilib, kechiriladi. Ammo, Amir Kayxusrav Xatloniy tomonidan o'ldiriladi.

1370 yil — Amir Temur Balxdagi qurultoyda Turon hukmdori etib saylangan yil.

1370 yil — Amir Temur Balxdan Shahrisabzga, so'ngra, Samarqandga kelgan va bu shaharni o'z saltanatining poytaxti, deb e'lon qilgan yil.

Ko'rib o'tganimizdek, 1370 yil Amir Temur taqdirida o'ta muhim ahamiyat kasb etgan. Buni yaxshi anglagan muallif epopeyaning birinchi kitobida bu sana bilan bog'liq voqealarning mohiyatini chuqurroq yoritishga diqqatni qaratgan va katta mahorat bilan uni ochib bera olgan. Qolaversa, 1370 yilda bo'lib o'tgan voqealar Sohibqironning butun umri davomida o'z ta'sirini yo'qotmagan. Epopeyaning qolgan uch kitobini o'qib, bunga guvoh bo'lamiz.

Shu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlashimiz lozimki, Amir Temur to'g'risida yozilgan barcha tarixiy manbalarda Sohibqiron va boshqa temuriyzodalar haqida rasmiy ma'lumotlar berilgan. Ularning tashqi qiyofalari, liboslari va ruhiy holatlari haqidagi ma'lumotlar deyarli mavjud emas. Shu sababli ham, temuriylar davri haqida badiiy asar yozayotgan yozuvchiga unchalik oson bo'lmaydi. Bu davrning tarixiy, ruhiy-ma'naviy hamda badiiy manzarasini to'laqonli yaratish uchun juda ko'p ter to'kishi, zarur ma'lumotlarni o'nlab kitobu manbalardan qidirib topishi, so'rab-surishtirishi lozim bo'ladi.

Epopeyaning birinchi kitobida Bibixonim haqida so'z ketganda, yozuvchi bu go'zal malikaning timsolini haqqoniy tarzda yoritishga erishgan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu yozuvchi uchun unchalik oson kechmagan. Chunki, tarixiy manbalarda Bibixonim va boshqa temuriy malikalar, umuman saroy xonimlari haqida juda kam ma'lumotlar saqlangan. Negaki, Sharqda birovning ro'zg'ori, qizi yoki opa-singillari haqida oshiqcha narsalarni yozish taomilda uchrayvermaydi. Ammo tarixiy asar emas, badiiy asar yozayotgan o'zbek adibining o'z bobolari-momolari hayotiga nazar tashlashga ma'naviy huquqi bor, ugina emas,

o'quvchilari ham o'z ajdodlarining to'la-to'kis hayoti haqida tasavvurga ega bo'lishlari joiz, shu sababdan tarixiy mavzuda badiiy asar yozayotgan adib uchun bobolar hayotini, oilaviy turmushini teran o'rganish, yoritish zarur shart hisoblanadi.

Temuriy malikalar haqida Sharq tarixchilariga karaganda, ko'proq ma'lumotlarni ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo kundaliklaridan o'qishimiz mumkin. Samarqandga tashrif buyurgan va malikalarni o'z ko'zi bilan ko'rishga muyassar bo'lgan ispan elchisi Bibixonim va boshqa malikalarning tashqi qiyofalari haqida anchagina muhim ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Bu juda qimmatli manba hisoblanadi. Bu adibimizga ham qo'l kelgan. Muhammad Ali yaratgan Bibixonim timsoli ispan elchisi tomonidan juda mahorat bilan tasvirlagan malika obraziga yaqindir.

Muallif epopeyaning birinchi kitobida Sohibqironning tashqi qiyofasini juda mahorat bilan tasvirlaydi. Bu muammo ham ko'pgina bahs-munozaralarga sabab bo'lganligi tarixdan yaxshi ma'lum. Amir Temur yashab o'tganidan to hozirgi kunlargacha Sohibqironning yuzlab suratlari chizilgan. Amir Temurning eronlik musavvirlar chizgan suratlarda eronlikka, turk musavvirlari chizgan suratlarda turkka, evropalik musavvirlar chizgan suratlarda evropalikka o'xshab qolganligiga guvoh bo'lganmiz. Bir necha tarixchilar o'z asarlarida bevosita Amir Temurni yaqindan ko'rishib, ul zotning tashqi qiyofasi haqida ishonchli ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Bularning ichida arab tarixchisi Ibn Arabshohning ma'lumotlari juda muhimdir.

Muhammad Ali yuqorida zikr etilgan tarixchilarning ma'lumotlari bilan yaqindan tanishib, ularni bir-biriga muqoyasa qilib masalaga adolatli yondoshgan, natijada Amir Temurning haqqoniy qiyofasini yarata olgan.

Amir Temur tarixida uning Amir Husayn bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari juda bahsli holat hisoblanadi. Ko'pchilik olimlar 1370 yilda Balxda mag'lub bo'lgan Amir Husayn Sohibqironning buyrug'i bilan o'ldirilgan, deb yozganlar. Bu fikr tarixiy haqiqatga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Muhammad Ali o'z asarida Amir Temur tomonidan kechirilgan Amir Husaynni Amir Kayxusrav tomonidan

o'ldirilganligini ishonchli tarzda ifodalab berganki, bu tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga ham mos keladi.

Muhammad Ali Sohibqironning badiiy timsolini yaratar ekan, bu buyuk inson va tengsiz jahongir bo'lishiga qaramay, oddiy insonga xos bo'lgan fazilatlaru nuqsonlardan holi bo'lmaganligini ishonchli ravishda ifodalab bergan. Ma'lumki, Amir Temur hayotlik vaqtida o'g'li Jahongir Mirzo va Umarshayx Mirzolardan hamda suyukli nabirasi valiahd Muhammad Sultonlardan judo bo'lgan. Bu ayriliqlar natijasida dunyoning ishlaridan ko'ngli sovub, hech kim bilan gaplashmay ko'z yoshlarini to'kkan edi. Bunday og'ir vaziyatlarda piri Mir Sayyid Baraka uning huzuriga borib, Sohibqironni yupatadi va davlat boshqaruv tizimini o'z qo'liga olishga undaydi. Asarda bunday voqealar ham juda mahorat bilan ifodalangan. O'quvchi o'qib ularga ishonadi.

Amir Temurning Hindistonga harbiy yurishi va Xitoyga qilmoqchi bo'lgan safari sabablari haqida juda ko'p bahs-munozaralar yuzaga kelgan. Muhammad Ali tarixiy manbalar asosida Sohibqironni bu yurishlarga undagan asosiy sabablarni chuqur o'rganib yuksak badiiy mahorat bilan ochib bera olgan va ifodalagan.

Ayrim tarixiy kitoblarni o'qisangiz, muallif o'z asariga tarixiy shaxs xarakterini ochish va uning faoliyatini yorqinroq ko'rsatish uchun juda ko'plab to'qima obrazlarni kiritib yuboradi. Natijada, to'qima obrazlar etakchilik qilib, tarixiy shaxs ularning soyasida qolib ketadi. Muhammad Alining ushbu asarida bunday noxush holatni uchratmaymiz. Har bir tarixiy obraz o'ziga xos va mos ravishda ifodalangan, asarda zarur joyda paydo bo'ladi. Shuningdek, ayrim tarixiy mavzuda yozilgan asarlarni o'qiganingizda yozuvchining yozayotgan davrini tarixiy joylashuvidan bexabar ekanligi ma'lum bo'lib qoladi. Misol uchun, asar qahramoni falon saroydan chiqib, kunbotar tomonga fiston manzilga bordi, deb yoziladi. Tarixan esa o'sha fiston manzil kunbotar tomonda emas, kunchiqar tomonda joylashgan bo'ladi. Muhammad Ali Samarqand, Hirot va Shahrisabz shaharlarining XI-V asrlardagi tarixiy-geografik joylashuvlarini yaxshi o'rganganligi ("Zafarnoma"lar, "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn", "Bahr ul-asror" va boshq.) uchun bunday noxush holatlarga yo'l qo'ymagan. Ma'lumki,

tarixiy asardagi voqealarni o'quvchilarga ishonarli qilib etkazishda o'sha davr munosabatlari, xalqning urf-odatlar, etnografiyasi, yurt toponimikasi mahorat bilan berilishi zarur. Bunda badiiy tasvir vositalaridan tashqari asarning til xususiyatlari muhim rol o'ynaydi. Demoqchimizki, Muhammad Ali bu talabni ham katta mahorat bilan eplay olgan. Ha, asar tili jozibali chiqqanini ta'kidlash kerak. Buni asardagi qahramonlarning o'zaro dialoglari ham yaqqol ko'rsatib turibdi.

Tarixiy manbalardan yaxshi ma'lumki, Amir Temur islom diniga alohida e'tibor bergan. Bu dinning taraqqiyoti uchun buyuk xizmatlar qilgan. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning avlodlariga alohida hurmat ko'rsatgan. Bundan tashqari, Sohibqiron o'z piri murshidi Mir Sayyid Barakaning maslahatlari va o'gitlariga doimo amal qilgan holda ish olib borgan. Muhammad Ali o'z asarida Amir Temurning islom diniga, piri Mir Sayyid Baraka va fuzaloyu ulamolarga ko'rsatgan ehtiromini ishonchli tarzda ifodalashga erishgan.

Epopeyada obraz va personajlar xuddi tirik odamday harakat qilishadi, siz ularni ko'rib turasiz, ularning dardlariga sherik bo'lasiz, goh quvonganingizni, goh g'amgin ruhga chulg'anganingizni sezmay qolasiz. Saroymulkxonim, Xonzoda xonim, Muhammad Sulton, Sog'inch xonim, Xalil Sulton, Yildirim Boyazid, Mironshoh Mirzo, Shodimulk oqa... va boshqa ko'p tasviri o'z qiyomiga etgan obrazlar uzoq vaqt esingizda qoladi, ularning taqdiri o'ylarga cho'mdiradi.

Muhammad Ali "Ulug' saltanat" epopeyasida o'zining yigirma yillik tinimsiz izlanishlari bilan Buyuk Sohibqironning saltanat boshiga kelganidan (1370) to o'n besh yoshli Mirzo Ulug'bekning Turon taxtiga o'ltirishigacha(1409) bo'lgan tashvishu g'alayonlarga to'la salkam qirq yillik davrni mohirona badiiy ifodalab berdi. Muallifning juda katta mehnatni amalga oshirgani yaqqol ko'rinib turibdi. Mehnat qilganda ham, o'zining butun mehr-muhabbatini berib, sidqidil ter to'kkani tahsinga sazovordir. Buni epopeyani o'qigan kitobxon har lahzada sezib turadi.

Adib tarixiy manbalar orqali sarbadorlar harakatini jiddiy o'rganish natijasida 1984-1989 yillar oralig'ida "Sarbadorlar" nomli roman yozgan edi¹. 1997 yilda bu asar to'ldirilib, qayta nashr qilinganiga qaramay, asosan, o'zgarishsiz (Temur obrazi Temurbekka aylanganini e'tiborga olmasak) holda chop etilgan².

Muhammad Ali o'z asarida vatanimiz tarixini bor murakkabliklari-yu, shavkati bilan ko'rsatishga harakat qilgan, buyuk sohibqiron obrazining badiiy talqiniga alohida ahamiyat bergan edi. Akademik M.Qo'shjonovning fikri bilan aytganda: "Kitob jildlarini yopa turib, tabiiyki, ba'zi bir takrorlarga, cho'ziqliklarga, badiiyat talabiga javob bermaydigan bir bet, yarim bet bayonlarga duch kelganimizni ham aytib o'tamiz. Bu xildagi kamchiliklarni adibning roman yaratishdagi birinchi tajribasi ekaniga yo'ygimiz keladi"³.

Ayni asarga munosabatda prof. N.Karimovning quyidagi kuzatishlari ham e'tiborli: "Shu vaqtgacha shoir sifatida ijod qilib kelgan Muhammad Ali o'z oldiga ulkan ijodiy maqsad va vazifa qo'yib... xalqimiz tarixining Amir Temurni etishtirib bergan katta bir davrini badiiy tahlil qilish mashaqqatini o'z zimmasiga oldi. U Oybek va Mirkarim Osimdan keyin adabiyotimizda paydo bo'lgan bo'shliqni to'ldirishga urindi... M.Alining mazkur romanlarida badiiy tasvirdan ko'ra tavsifiylik ustuvorlik qilishiga qaramay, bu asarlar qodiriyona va oybekona tarixiy romanlar yaratish yo'lidagi qutlug' qadamlardir"⁴.

Har ikki olim "Sarbadorlar"dagi ayrim kamchiliklarni e'tirof etganiga qaramay, asarning nafaqat Muhammad Ali ijodida, balki o'zbek romanchiligi taraqqiyoti uchun ham muhim qadam ekanini to'g'ri ta'kidlashadi. Darhaqiqat, ushbu fikrning isboti tariqasida shuni aytish kerakki, sho'ro romanchiligi o'sha davr o'zbek adabiyotining bosh ijodiy mezonini sotsrealizm doirasida yaratilgan asarlar sirasidagina iborat emas. Zero, professor B.Qosimov o'zining «Ulug'

¹ Мухаммад Али. Сарбадорлар // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1990. – №10. – Б.44-125; Қайта нашри: Сарбадорлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1997. – 560 б.

² Бу ҳақда қаранг: Ҳамроева М. Тарихий ҳақиқат ва бадий талқин (Амир Темур образининг насрий талқинлари): Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б.11.

³ Қўшжонов М. Ёзувчи камолоти // Мустақиллик даври адабиёти. – Тошкент: Нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2006. – Б.19.

⁴ Каримов Н. Тарих ва адабий жараён / Мустақиллик даври адабиёти. – Тошкент: Нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2006. – Б. 60.

saltanat sirlari» maqolasida «Sohibqiron hazratlarining 660 yillik to'ylari kunlarida matbuotda bir ma'lumotga ko'zim tushgan edi. U kishi haqida G'arbda 400, Sharqda 900 dan ortiq asar yozilgan ekan» degan ma'lumotni berishi¹ ham shundan dalolat beradi.

Bugungi kungacha Amir Temur haqida ko'plab asarlar yaratilyapti, biroq, Sohobqiron xarakteri va ruhiyatining barcha qirralarini birdek mukammal badiiy tasvirlay olgan asarlar hali yaritilmagandek ko'rinadi. Garchi ba'zi nuqsonlariga qaramay, tarixni badiiy idrok etishda (ayniqsa, Amir Temur siymosi talqinida) Muhammad Alining "Sarbadorlar" romani bu boradagi muhim bekat bo'lganligini e'tirof etish joiz. Biroq, roman yozilgan paytda o'sha davrda yaratilgan boshqa asarlaridagi kabi (atoqli olimimiz aytgan "qodiriyona va oybekona tarixiy romanlar yaratish yo'lidagi" urinish bo'lsa ham) Amir Temur siymosini milliy qahramon sifatida talqin etish uchun hali etarli ijtimoiy sharoit va adabiy tajriba shakllanmagan edi.

Muallifning tarixiy mavzudagi yangi romani – "Ulug' saltanat"²ga bo'lgan munosabatda ham o'zbek adabiyotshunosligi xolisona yo'l tutdi: bu asar ushbu mavzudagi etuk romanlardan biri sifatida baholadi. Biroq, roman haqida yaratilgan o'nlab maqola va taqrizlarning hech biri³ "Ho'sh, bu asarda Amir Temur siymosi milliy qahramon sifatida talqin etilganmi?" degan masalani ko'ndalang qo'ygani yo'q. Bunga sabab, birinchidan, xuddi adabiy jarayondagi kabi adabiyotshunoslikda ham qat'iy stereotipga aylangan qonuniyatlardan kelib chiqib ish ko'rishga odatlanganimiz bo'lsa, ikkinchi jihatdan, Amir Temur shunday olamshumul miqyosdagi siymoki, uni birgina milliylik tushunchasi doirasida tahlilga tortish samarali emas. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, buyuk shaxslar siymosi aks etgan tarixiy romanlarni milliylik tushunchasidan ayri holda tadqiq etib ham bo'lmaydi. Negaki, milliylik – bu faqat tashqi ko'rinish, urf-odat, yashash tarzi, makon va zamon bilan bog'liq tushuncha bo'libgina qolmay, balki birinchi navbatda, har qanday millatning genetik ildizida, qonida ruhiyatida namoyon

¹ Qosimov B. Ulug' saltanat sirlari // Xalq s'zi. – Toshkent, 2003. – 18 mart.

² Muhammad Ali. Ulug' saltanat. – Toshkent: Sharq, 2006. – B.335.

³ Kodirov P. Shoir e'zgan roman // Uzbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 2003. – 24 oktyabr;

bo'ladigan hodisadir. Shu bois, badiiy asar qahramoni ruhiy olami tadqiqining markazida, eng avvalo, milliylik mezonlari turishi taqozo etiladi. Shunga ko'ra, biz o'zbek millatining dunyo miqyosida nom qozonishiga asos bo'lgan, "Ovro'pani Usmonli turk imperiyasi bosqinidan saqlab qolgan" olamshumul siymoga milliy qahramon sifatida yondoshganda, shonli tariximiz va qadriyatlarimiz badiiy tahlili uchun etarli material berishini ta'kidlamochimiz. Chunki Napoleon Bonapart, Pyotr I, Karl va Lyudoviklarning milliy qahramon sifatida tarixga kirishida faqat frantsuz, rus, olmon va ingliz tarixchilarining asarlarigina emas, balki bu siymolar tarixi aks etgan tarixiy romanlar ham muhim rol o'ynagan. Buni unutmazlik zarur. Shunday ekan, Amir Temur siymosini tasvirlashda, millat ruhining qay darajada aks etganligini tadqiq etishda milliy muhitni tarixiy sharoitga aylantirgan adiblarning badiiy mahorati muhim ahamiyatga ega. So'ngi davr romanchiligiga shu nuqtai nazardan yondashganda, Amir Temur siymosining badiiy talqinida milliy qahramon masalasiga e'tibor qaratilayotganligi diqqatga sazovordir

"Ulug' saltanat" haqida fikr yuritgan M.Qo'shjonov romanning ayni shu jihatlariga o'z e'tiborini qaratadi. "Amir Temur singari sarkarda haqida har xil yo'sinda asarlar bitaverish mumkin. Qahramonning hayoti ko'proq janglar bilan bog'liq. Shu ma'noda, u haqdagi asarni jangnoma tizmasi sifatida bitib qo'ya qolishi mumkin edi. Muhammad Ali boshqacha yo'l tanladi. Ulug' sarkardani u ko'proq kundalik maishiy hayot, oila, qarindosh-urug' va do'st-yorlar muhitida ko'rsatadi. Farzandlarining tarbiyasi, kattaroq bo'lganda ularning qismati, har xil yo'sinda ro'y bergan tashvishlari, ularni uyli-joyli qilish, o'ziga munosib kelin topib uylantirish, farzandlarining boshiga biron ish tushsa ularga hamnafas bo'lib, dardiga sherik bo'lish, hokazo va hokazolar...»¹

Darhaqiqat, munaqqid haqli ravishda ta'kidlaganidek, Muhammad Ali o'z qahramonini jangu jadal va saltanat ishlaridan tez-tez "qaytarib", oilaviy muhitga tortib turadi. Qahramon siymosida milliy kolorit aks etishi mumkin bo'lgan badiiy

¹ Қўшжонов М. Ёзувчи камолоти / Мустақиллик даври адабиёти. – Тошкент: Нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. – Б.24.

sahnalar ko'proq oilaviy sharoitda va o'z yaqinlariga bo'lgan munosabatda ko'rinadi. Milliylik unsurlarining hurmatli olimimiz tilga olgan "bolalarni uyli-joyli qilish, o'g'ilga munosib kelin topib uylantirish, suyakli farzand Jahongir Mirzoning o'limidan ota sifatida iztirob chekishi, aqli raso kelin – Xonzoda xonimning beva qolishidan iztirobga tushishi, kelinini qizim deb aytishi" kabi milliy talqinlarini nazardan qochirmagan holda, romanda buyuk tarixiy shaxsning milliy qiyofasi mukammal yaratilgan deyishga asos beradigan dalillar etarli emasligini ham qayd etishga to'g'ri keladi. Biroq, shunga qaramay, Muhammad Ali talqinidagi buyuk sohibqironning ushbu so'zlariga diqqat qilaylik: "Sizni kelinim emas, qizim, degandim... Endi... qizim emas, o'g'lim deyman. O'g'lim o'rnida o'g'lim!.." Bu so'zlar kelinni yupatish uchun aytilgan shunchaki taskin so'zlar emas. Jahongir Mirzoday alp kelbatli o'g'lini yo'qotgan otaning, vorisi vafot etgach, ulug' saltanatning ertasidan xavotirga tushayotgan sulola boshchisining yurak dardlari. Qolaversa, bu so'zlar o'zbekona oilaviy muhitda aytilayotgani uchun ham uni buyuk sohibqiron obrazining milliylikini ta'minlovchi badiiy unsurlardan biri sifatida baholanishiga to'la asos bor.

Asarda Amir Temur o'g'li Jahongir Mirzoning o'limiyu, uning bevasi Xonzoda xonimning baxtsizligidan iztirob chekadi. Biroq, qahramon boshqa temuriyzodalarga befarq bo'lmasa-da, ularga nisbatan bo'lgan mehr cho'g'i sustroq tasvirlangandek taassurot qoladi. Ayni paytda, asarda Amir Temur, hayotda bo'lganidek, mard, tanti, oliyhimmat inson sifatida talqin etiladi. Yozuvchi asarda tarixiy faktlarni jonlantirib, bir necha bor xiyonat qilgan, o'zini buyuk Amir Temurning raqibi deb bilgan shaxslarga qayta-qayta himmat ko'rsatib, xiyonatlaridan ham ko'z yumgan, Chingizxon avlodidan bo'lgan To'xtamishxonga nisbatan munosabatda ham sabr-qanoatli va kechirimli bo'lgan buyuk shaxs sifatida tasvirlaydi.

Sohibqiron To'xtamishxonga bir necha bor yordam qo'lini cho'zadi, u to'g'rida yomon gumonlarga bormaydi. Adib tarixiy voqelikni tasvirlar ekan, "To'xtamish o'g'lon ikkinchi marta yog'iydan "kaltak" eb huzuriga qochib kelganda, Amir Temur oliyjanoblik va vallomatlik odatiga ko'ra uning xatolarini

yuziga solmay, avvalgidan ham ortiqroq siylab, ko'nglini ko'taradi. Qo'shin berib, Amir Uljaytu opardiy kabi kadxudoni hamroh qilib takror Sobron tomonga yubordi"¹ deya Temur xarakteridagi jo'mardlikni milliy tuyg'ularga esh holda tasvir etadi.

Shubhasiz, Amir Temur siymosida milliy ruhni ko'rsatish uchun Muhammad Ali unda xalqimizga xos bo'lgan xislatlarni namoyon qilishga harakat qiladi. Biroq, ayonki, xalqimizga xos o'zbekona bag'rikenglik va ishonuvchanlik xislatlari qanchalik ijobiy fazilat sanalmasin, afsuski har doim ham g'alaba keltiruvchi omil bo'lavermaydi. Shu bois, harbiy sarkardalar va yirik saltanat sohiblariga bu xususiyat ba'zan pand berib qo'yganiga guvox, bo'lamiz. Ayni holatni biz muallifning e'tiroflarida ham kuzatamiz. Yozuvchi Muhammad Ali A.Alimbekov bilan suhbat qilarkan, e'tiborni shu jihatga qaratadi: "Amir Temurga xos bo'lgan fazilatlardan (balki kamchilikdir!) biri uning o'ta ishonuvchanligida, deb hisoblayman, aslini olganda, bu umuman, o'zbeklarga xos xususiyat. U To'xtamishxonga ishondi, lekin afsuski, chingiziyzoda bu ishonchni oqlamadi, xiyonatga yuz burdi"². Demak, yozuvchi ushbu hayotiy faktda milliy ruhga xos bo'lgan jihatlarni his qilgan va tarixiy haqiqatiga sodiq qolgani holda milliy ruhni kuchaytirishga erishgan. Natijada millat tabiatiga xos e'tiborli xislatlar har doim ham saltanat boshqaruvida naf beravermasligini haqqoniy ko'rsata olgan.

Romanda Amir Temurga xos sifatlardan yana biri o'z yaqinlariga, oila a'zolari, qarindosh-urug'lariga nisbatan haddan tashqari ko'ngilchan qilib tasvirlanishida ko'rinadi. Ayniqsa, uning temuriy xonzodalarga munosabati, ya'ni opasi Qutlug' Turkon oqa, Saroymulxonim, Xonzoda xonimning ko'ngliga qarashi, ularni qadrlashi va har qanday holatda keng fe'llik qilishi, bamaslahat ish yuritishi, xohish-istaklariga mone'lik qilmasligi Amir Temurdek jahongashta sarkardaning me'yordan oshiqroq tarzda oilaparvar qilib ko'rsatadi. Bundan tashqari, asarda tasvirlanishicha, atrofidagi amirlar va mahramlarning ham fikrlarini chuqur o'ylab ko'rmay, ularga ishonib tez rozilik beradi. O'zining o'y-

¹ Мухаммад Али. Улуғ салтанат. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б.131.

² Мухаммад Али, Алимбеков А. Бадиий тарих манзаралари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2006. – 27 январь.

xayoli esa faqat yurt obodonchiligi, bog` ko`kartirish, yangi-yangi saroylar qurish bilan band. Uning bu xususiyatlari o`z tilidan shunday bayon qilinadi: “Ogoh bo’lsunlarkim, bizning qudratimiz – Alloh kalomini dilimizga joylag`onimizda, kishiga ezgulik tilag`on xush fe`limizda, mayli imoratu xayru ehsonga bag`oyat ruju qo`yg`onimizda! Kindik qoni to`kilg`on erni e`zozlag`onimizda! Hubbul Vatani minal iymon! Bizning qudratimiz –umr degan savdoning me`morlikdan iborat ekanligini teran anglag`onimizda”<sup>1</sup>. Shu bois, u Samarqand atrofidagi bog`larni barpo qilish orzusi bilan yashaydi va bu ishni amalga oshirishda o`zi ishongan shaxs – Amir Sayfiddin neko`zga suyanadi.

Adib Samarqandda qad ko`targan masjid, madrasa, kutubxona va boshqa binolar temuriy malikalar tashabbusi bilan ularning o`z mablag`lari hisobiga qurilganiga alohida urg`u beradi. Uning ta`kidlashicha, Amir Temur xonadonida farzandlarining taqdiri, to`y-tomoshalarni tashkillashtirish, kelin yoki kuyov tanlash masalalari ham ayollar tomonidan bajariladi. Asarda, ayniqsa, kundoshlar munosabati, juda tabiiy tasvirlangan. Bizningcha, yozuvchi kundoshlar o`rtasida bir oz konflikt chiqarib “Er berish, jon berish” degan aqidaga amal qilib, malikalarning ruhiy iztiroblarini barcha murakkabliklari bilan aks ettira olganda asar yanada ishonarli chiqar edi, deb o`ylaymiz. Romanning birinchi kitobida tasvirlanganidek, Saroymulkxonimning Temur hayotidagi izchil o`rni keyingi kitobda soyada qolib ketadi. Bu romanda Amir Temurning muhabbati Saroymulkxonimga emas, balki yosh xotinlariga qaratilgani bo`rttiribroq tasvirlangan. Suyukli xotin deb tanilgan Saroymulkxonim qasrda noilojlikdan yurganday va hayotning mazmunini temuriy shaxzodalarni tarbiya qilishdangina iborat, deb bilganday taassurot qoldiradi. U goh-gohida farzandsizligidan o`kinib qo`yadi, xolos.

Asarda malika Xonzoda xonim obraziga katta e`tibor beriladi. Uning iztiroblari, ayriliqdan o`rtanishlari, yosh boshiga beva qolish qismati va oxir-oqibat qaynona hamda qaynota himmati bilan yana turmushga uzatilishi bir oz mubolag`a bilan tasvirlanadi. Ushbu mubolag`a zaminida, bizningcha, yozuvchi o`zining

¹ Мухаммад Али. Улуғ салтанат. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б.106.

xolislik printsiplaridan bir oz chekinib, malikaga qayishayotgani, uning qismatiga achinish oqibatida hayotining izga tushib ketishiga “ko’maklashayotganday” tuyuladi. Chunki o’z kelinini boshqa birovga uzatish taraddudi farzandini yo’qotgan xonadon uchun qanchalik og’ir kechishini tasavvur qilish qiyin emas. Shunday ekan, qaynona va qaynotaning o’z kelinini turmushga berish uchun ko’rsatgan “jonbozliklari”, bizning nazarimizda, o’zini oqlamaganday, tarix haqiqatiga ham, o’zbekona bag’rikenglikka ham, badiiy haqiqat qoidalariga ham unchalik mos tushmayotganday tasavvur beradi.

Asarda Amir Temur xalqparvar, fuqaroparvar shaxs sifatida ko’zga tashlanadi. U vaqti-vaqti bilan qalandar libosida shahar kezib, xalqining turmush tarzi, orzu-o’ylari, gap-so’zlari, istaklari va kayfiyatini kuzatadi. Jang va safarlarda jangchilarga namuna bo’lish maqsadida ular bilan birga ovqatlanadi, safning oldida yurib, jang qiladi, ularning jangovor ruhini ko’tarishga va g’alabaga ishonchini oshirishga harakat qiladi. Amir Temurning mardligi va jangchilarga o’rnak bo’lish maqsadida qilgan xatti-harakatlari Xorazm shohi talab qo’ygan kezlarda yanada yaqqolroq ko’zga tashlanadi. Yakkama-yakka jang qilishni istagan Xorazm shohi Amir Temurning vajohatini ko’rib qo’rqib ketadi va jang maydoniga chiqmaydi. Bu holat Xorazm shohiga xayrixoh bo’lgan jangchilarining ruhiyatiga ham ta’sir qiladi. Ayni holni xorazmliklarning mag’lubiyatini ta’minlagan asosiy omillardan biri sifatida ham qayd etish mumkin. Demak, Amir Temurning tabiatiga xos bunday xususiyatlar yuqorida ko’rib o’tilganidek, jangda nafaqat pand berishi, balki unga g’alaba keltiruvchi omillardan biri sifatida ham qaralsa arziydigan holatdir. Romanda Yusuf So’fining qo’rqoqligi fosh bo’lganidan keyin ham, Amir Temur uni “quda” deb samimiy munosabatini buzmaydi va Qarshidan atay berib yuborilgan o’rikni unga ham ilinadi. Asarda keltirilgan ushbu tasvir ham milliy bag’rikenglik namunasi sifatida ko’zga tashlanadi.

Biz roman vositasida Amir Temurning shaxsiyatiga va ruhiy tabiatiga singib ketgan milliy xususiyatlarni tahlil qilar ekanmiz, Muhammad Ali adabiyotshunos Islom Yoqubov ta’kidlaganidek: “Sohibqironning betakror va individual shaxs sifatida gavdalangan siymosini olib kirdi. O’sha davrning milliy manfaatlarimizga

to'la mos bo'lgan tipini yarata oldi"¹. Bu jihatlarni birgina milliy qahramon obraziga jamlash yozuvchi uchun oson kechmagan, albatta. Shunday ekan, bunday murakkab, ko'ptarmoqli tasvirlar zahirida Amir Temur xarakteriga xos ziddiyatlar ham yuzaga qalqib chiqadi. Uning fe'l-atvorida o'z muhiblariga mehribonlik-u g'animlarga nisbatan shafqatsizlik, adabiyot va ilm-fan sohiblariga homiylik, bunyodkorlik va urush asnosida Xorazmdagi ayrim osori atiqalarning vayron bo'lishi kabi holatlar Amir Temur badiiy siymosining haqqoniy tasvirlanishiga yozuvchi tomonidan astoydil harakat qilinganini anglatadi.

Amir Temur xarakteriga xos yana bir fazilat uning mard va tantiligida ko'rinadi. Farzand qatorida bilib, boshini silab, munosib izzat-ikrom ko'rsatilgan To'xtamishxon sotqinlik qilganida, u bilan mojarolar tufayli ko'p sarsongarchiliklarni boshidan kechirganda ham irodasi mustahkam va sabr-toqatli ekanini namoyish qiladi. Biroq, sohibqironning mana shunday mard va tantiligidan foydalangan ayrim shaxslar xiyonatga qo'l urishi bois, Amir Temur o'z yaxshiliklari uchun jabr ko'rgan shaxsga aylanadi. Bu holatni sohibqironning qizi Sulton Baxt boshining eri Amir Muhammad Mirzoning xiyonati bilan bog'liq tasvirlarda ko'rish mumkin. Yozuvchining talqinicha, adolatparvar sohibqironidan ko'ra, bu xiyonat va yovuzlikka nisbatan Umarshayx Mirzo keskin choralar ko'radi. Shu sabab, nazarimizda, asarda bu obraz anchagina ishonarli chiqqandek taassurot qoldiradi. Undagi shijoat, jur'at, raqibga nisbatan beayov nafrat, jang maydonlaridagi qat'iyatlilik, kuzatuvchanlik va sezgirlik, suhbatdoshining ruhiy holati, ko'z qarashi hamda rangi-ro'yidagi o'zgarishlardan uning yashirin fikrini anglab olishlik kabi jihatlari kitobxonga bu xarakterning naqadar qudratli ekanini anglashga yordam beradi.

Amir Muhammad Mirakning ukasi Abulfathni tutib keltirishgach, u bilan savol-javob qilgan Umarshayx Mirzoning "Fursat o'tmasun! Bu nonko'rni Amir sohibqiron huzuriga olib boringiz! Jazosini o'zlari bersinlar"² degan so'zlarida ham katta hayotiy mantiq yotibdi. Birinchidan, bir necha bor ogohlantirishiga qaramay,

¹ Ёкубов И. Муҳаммад Али ижодида тарихий жараён концепцияси ва лиро-романтик талқин. – Тошкент: Фан, 2007. –Б. 69.

² Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б.292.

otasi bu sotqinlarga ishongan edi. Shu sabab shahzoda ularning asl qiyofasini fosh etmoqchi bo'ladi. Ikkinchidan, Umarshayx sotqinlikni otasiga ma'lum qilib, xiyonatkorning o'zini esa sohibqirondan ruxsat olmay qatl qilish orqali yovuzlik ildiziga bolta urganligini isbotlamoqchi bo'ladi. Biroq, uning bu ishidan otasi g'azablanadi. Albatta, kuyovini o'ldirgani uchun emas, balki kuyovni yo'ldan urgan kuchlar jazosini olmay, sir bo'lib qolganligi uchun afsuslanadi. Shu bois, Umarshayx Mirzoni shoshqaloqlikda ayblaydi, lekin Umarshayx Mirzo bu ishning orqasida turgan homiylar kimligini yaxshi biladi. Chunki otasi To'xtamishxonga homiylik qilib yurgan vaqtlarda uning ko'z qarashlari, kibrli boqishlari Muhammad Mirak bilan ko'z urushtirishlaridan ko'nglida bir yovuzlik borligini sezgan edi. Hatto bir safar shahzodalar to'plangan ziyofatda ikkalasi jiddiy bahslashib ham qoladi.

Jangdan engilib qaytgan To'xtamishxon Amir Temurni kam qo'shin berganlikda ayblaydi. Buni eshitgan Umarshayx mirzo unga Amir Uljaytu apardiy, Shodravon nayman, Yoruq Temur, Xitoy bahodir kabi jasur sarkardalar nobud bo'lganini eslatib qo'yadi va g'azab-nafrat bilan: "Otilmagan sopqon ham boshga tegadur, ham ketga!.. Ha! Necha marta Amir sohibqiron qo'shinni sozlab berdilar. Barida ham ma'rakai maydondan tirraqi echkiday shataloq otib qochib qoldingiz! Uyat bormu?.. Tag'in qo'shin kam berildi, deb noliysan! Nomusi yo'q, insofsiz! Qo'rqqoq!.." ¹ – deydi.

Biroq, alamzada To'xtamishxon bu gaplardan to'g'ri xulosa chiqarish o'rniga kibrga beriladi. "Bu gaplarni kimga so'ylayotirsiz, hey amirzoda! O'ylab gapiringiz! Bilingizkim, men podshohzodamen. Chingizxon avlodi! Buni esingizdan chiqarmangiz!.. Esingizdan chiqarmangiz!! Indamasa gapiraverasizmu?" ² – deya ko'ngliga yovuz niyatlarni tugib qo'yadi. Bir daqiqada bir-biriga qilich ko'tarishgacha borib, boshqalarning aralashuvi bilan o'rtalaridagi bu nizo vaqtincha bartaraf etilgan bo'lsa–da, ayni voqeadan so'ng ular o'rtasida keskin konflikt paydo bo'ladi. Odatda badiiy asardagi har qanday konflikt

¹ Мухаммад Али. Улуғ салтанат. – Тошкент: Шарқ, 2006. –Б. 164.

² Ўша жойда.

kitobxonni hayajonga soladi. O'quvchi qarama-qarshi kuchlar orasidagi murosasiz ziddiyatning echimini kutadi. Shu sababli, katta kuchga ega bo'lgan shaxslarning qarama-qarshiligi va ular o'rtasidagi kurash echimi g'oyat qiziqarli kechishi tabiiy. Yozuvchi bu kabi konfliktlar tasviridan o'ziga xos original xulosalar chiqaradi. Chunonchi, To'xtamishxon jangda engilsa-da, Umarshayx Mirzoni dog'da qoldirib, uning qo'lidan tirik qochib ketadi. Romandagi mana shu tasvirlar orqali yozuvchi Amir Temur siymosiga turli jihatdan yondashishga harakat qiladi uning shaxsiyatini ziddiyatga boy voqealar to'fonida, qarama-qarshiliklar girdobida tasvirlaydi.

Romanda Amir Temur siymosini yaratishda ijodkorning unga bo'lgan mehr-muhabbati, hurmati va samimiyligi yaqqol sezilib turadi.

Quyidagi parchaga e'tibor qarataylik:

«Saltanat yo'li shunday to'g'ri bo'lmog'i kerak! Nechog'li to'g'ri ekan-a! – kutilmaganda xayolidan kechdi sohibqironning. – Lekin to'g'ri yo'lda yurg'onlarning ko'ngillari ham to'g'rimikin?.. Bandasi bamisli sahrodagi yakka daraxt emish, qalbi o'sha daraxtdagi bir yaproq, bir lahzada chapga qayriladur, bir lahzada o'ngga... Saltanat, millat ishi deb kuyib-yonasen... Ammo yoningga kirib yorguvchilar kam... Sen o'ylog'ondek o'ylamaydurlar. Saltanat mulkiga ko'z olayturg'uvchilar bor... Yolg'iz o'zi uchun dunyoga kelg'on, nafsiga qarshi ermas, nafsini yoqlab qilich ko'torg'onlar... Rishvaxo'rlar, talonchilar, o'g'rilar, xonilar... Ikki qo'lini kessang tili bilan pora olg'aylar...»

- Ha, Amir sohibqiron, maqsudingiz ulug'dir, bilamen, barchasini bilamen...

- bosh tebratdi Muhammad Chug'ora dodhoh.

- Jangu muhorabalarga qarshi ekanligimni bilurmusen?

Chorasizlig'imdin qilichga suyanurmen! Wzga ilojini topolmaydurmen! Urush, urush ekan, o'z oti bilan... Kimsani tan olmaydurg'on rusumlari bor ekan. Sarkardadan maydonda eng birinchi so'raladigan narsa jasorat, botirlik. Ammo sarkardani asrkarda deb hisoblash uchun birgina jasorat kifoya ermas. Uning qalbida qahru g'azabga ham joy topilmog'i shart. Shart budurki, qahru g'azabni vaqtida jilovlay ololsun. Na choraki, hamma narsa ham bandasining izmida ermas.

Shu yoshga kirib anglab etdimki, odamlar yaxshi gapni tushunishlari mushkul, ularni umid va qo'rquv orasida tutmak shart... qo'rqitmasang, qo'rqitadilar... ulardan qo'rqulik...

Amir Temur biroz o'ylandi-da, keyin davom etdi:

- Ammo men sarkarda emas, Turon sultonimen, sulton! Maydon sohibi emas, mamlakat sohibimen! Vayron qilg'uvchi emas, obod etg'uvchimen»¹.

Ushbu keltirilgan lavhada Amir Temurning davlatni boshqarishdagi o'ziga xos ulug' zot ekanligini dalolatlaydi. Unda mamlakatni obod etishlikka bo'lgan ichki va hissiy e'tiqod har bir gap-so'zlarini to'laligicha tasdiqlab turibdi. Maqsadi – obodlik va yaratuvchanlik bo'lgan Sohibqironn xarakterini tarixiy faktlar yordamida tahlil qilishga harakat qilarkan, adib bu o'rinda aslo mubolag'aga o'rin ajratmaydi. Negaki, hayotda hamisha o'z so'zida qat'iy turgan adolatli humkdor Amir Temur asarda ham badiiylik nuqtai nazaridan etuk inson sifatida inkishof qilinadi. Demak, adib bor kuch g'ayratini obrazni individuallashtirishga harakat qilar ekan, birinchi navbatda botiniy asrorni analiz qilishga, qalbning kengliklarini inkshiof qilishga intiladi. Chunki ruhiy tahlil vositasi yordamida qahramon tiynati ochiladi. Romanni qiyosiy-tipologik aspektda o'rganish juda maqbul samaralarni beradi. Masalan, romanning har bir o'rnida tarixiy faktlarga tayanilib ish ko'rilgan. Ana shunday qilishlik ham romanni butun mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Bir qarashda Amir Temur oqil sarkarda, bir qarashda adolatli podshoh, mehribon ota bo'lib ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Muhammad Ali romanlarida tarixiylik tamoyillarining o'ziga xos tabiati haqida tadqiqotchi I.Yoqubov quyidagicha yozadi: “adibning maqsadi millatning otasi bo'lgan buyuk shaxsning avlodlarga namuna bo'lgilik ibratli insoniy fazilatlarini hayotiy lavhalar orqali zamondoshimizga etkazishdan iborat... Muhammad Ali sohibqiron buyukligini uning aqlu zakovati, salohiyati, favqulodda insoniy fazilatlaridan qidirib to'g'ri yo'l tanlagan, turli qavmlardan chiqqan

¹ Муҳаммад Али. Улуғ салтанат. –Т.: «Шарқ», 2010. 228-229-бетлар.

shijoatli va jasur, sadoqatli va mard amirlardan iborat do'stlari davrasida "millat tarixida quyoshday balqigan siymo" sifatida tasvirlagan"¹.

"Millat otasi"ning "millat tarixi"dagi roli masalalari talqin etilgan ushbu risolada ayrim bahstalar o'rinlar ham yo'q emas. Birinchidan, muallifning maqsadi faqatgina ibrat bo'larli qahramon yaratish bilangina chegaralanmaydi. U o'zi yaratayotgan obrazni avlodlarga namuna qilib ko'rsatish uchun emas, balki Amir Temur siymosini imkon qadar xolisona, o'z murakkabliklari bilan, ya'ni tarixiy manbalarda qayd etilmagan jihatlari bilan badiiy tasvirlamoqchi bo'ladi. Ikkinchidan esa, uning atrofidagi "do'stlari davrasi", I.Yoqubov yozganidek, faqatgina "jasur, sadoqatli va mard amirlardan iborat" emas. Buyuk sohibqiron o'zining amirlari orasida xiyonatkor, manfaatparast shaxslar borligini yaxshi bilgani va hatto, ular bir necha marta sulton sohibqironga pand bergani romanda ochiq - oydin tasvirlangan. Bundan ko'zlangan maqsad esa, mana shunday xiyonat va ziddiyatlar girdobiaro nafaqat o'zini, balki butun bir sulolasi va millatini tarix sahnasiga chiqara olgan milliy qahramonning badiiy siymosini yaratish ediki, I.Yoqubov risolasida masalaning mana bu jihatlari etarlicha e'tibor qaratmagan.

Muhammad Ali Amir Temur siymosiga qay jihatdan yondashmasin, ya'ni uni oilaviy muhitda tasvirlaydimi yoki ulug' saltanat asoschisi sifatida ta'riflaydimi, bundan qat'i nazar milliy qahramon sifatida talqin etganligi bilan e'tiborlidir. Shuning uchun ham romanni o'qigan kishi Amir Temurning saroy dabdabalaridagi tasvirida ham, "xonaki kiyim"da yurgan oddiy kishi sifatida ko'rganda ham uni, avvalo, milliy qahramon sifatida qabul qiladi. Shu jihati bilan asar istiqlool davrida yaratilgan tarixiy romanlar orasida o'z o'rniga egadir.

O'tgan yili "Ulug' saltanatning to'rtinchi kitobi nashr qilindi. Bu nashr «Sharq yulduzi» jurnalining 4-5 sonlarida e'lon qilindi. To'rtinchi kitobning nomi "Shohruh Mirzo" deb ataladi. Bu romanni tugallar ekan, adib P.Qodirovning "Ona lochin vidosi"dagi Shohruh Mirzodan farqli ravishda mukammal obraz yaratishga erishgan deyish mumkin. Ammo P.Qodirovning uslubi o'ziga xos. Va, ayni damda

¹ Ёқубов И. Муҳаммад Али ижодида тарихий жараён концепцияси ва лиро-романтик талқин. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.29 -30.

M.Ali talqinlarida oilaviy muzokoralar tasvirlanganini unutmagan ma'qul. Bu haqda adabiyotshunos I.Yoqubov shunday deydi: "Roman tetralogiyaning 4 kitobida 1399-1409 yillarda sodir bo'lgan voqealar qalamga olingan. Xususan, Misr va Shom yurishlari va temuriyzodalar o'rtasida toju taxt kurashining boshlanishi, Xuroson hukmdori Shohruh Mirzoning Movaraunnahrni o'z tasarrufiga kiritib, tinchlik o'rnatishi va o'n besh yoshli Ulug'bekni hukmdor sifatida e'lon qilishigacha bo'lgan o'-o'n bir yillik davr qamrab olingan. Roman syujet liniyasida muhim turuvchi tafsilotlardan biri Anqara jangidir. Tarixiy manbalardan bilamizki, Amir Temur va usmonli turk sultoni Boyazid I Yildirim qo'shinlari o'rtasida 1402 yilning 20 iyulida Anqara yonida jang bo'lib o'tadi. Bu jang Amir Temur g'alabasi bilan yakun topadi... Chunki "Shohruh Mirzo nenralogiyasining oxirgi romani ekani, unda bosh qahramon hayotiga so'nggi nuqta qo'yilishi tabiiy ekani bizga sir emas."¹

Aytish joizki, «Ulug` saltanat»da tasvirlangan xarakterlar qaysidir jihatlari bilan fol`klor va mumtoz adabiyotimiz qahramonlarini eslatadi. Chunki romantik bo'yoqlarning quyuqligi bunga yo'l ochadi. Ammo realligi, ishontirish kuchi bilan bu qahramonlar kitobxon diqqatini torta oladi. Adib intellektual qahramon yaratish yo'lidan borganligiga qaramasdan, tarixiy siymolarni ideallashtirishdan tiyilishga intiladi. Qadim Sharq adabiyoti va romanchiligimizdagi ijobiy qahramonlar obrazini talqin qilish tajribalaridan ijodiy bahramand bo'lish orqali ular o'rtasida muayyan darajada jonli tarixiy aloqadorlikni ham ta'minlay olgan.

Bunda bizningcha, adibning shaxsiy izlanish va tajribalari, iste'dodining yo'nalishi, Amir Temurning ulug`vor siymosiga bo'lgan qariyb qirq yillik muhabbat va ehtiromi o'ziga xos hayotiy zamin vazifasini o'tagan. Binobarin, bosh qahramon xarakteridagi xislatlarning bir qadar qabariqday tuyuluvchi sifatlari millat uchun tipik, qalamga olinayotgan davr hamda muhim uchun xarakterlidir. Shuning uchun ham hayotiy qabul qilinadi. Yozuvchi uslubidagi an'anaviy liro-romantika realistik roman uchun u qadar ortiqcha tuyulmaydi. Amir Temur va uni qurshagan kishilarning obrazlari milliy xislatlarining tashuvchilari sifatida

¹ Yoqubov I. Mulohaza, mushohada va ma'no uyg'unligi. // Sharq yulduzi. 2013 yil 4-son. –B.9-10.

kitobxon mehrini qozona oladilar. Sohibqironni ulug`vorlik va etkulik pillapoyalaridan yuksaltirgan omillarni adib quyidagilarda ko`radi:

- *Sohibqiron tabiatiga xos davr talablarini millat manfaatlarini nuqtai nazaridan anglash;*

- *o`zining bilim va tajribasinigina emas, atrofidagi ziyoliyu amir-amaldorlarning xatti-harakatlarini ham bosh maqsadga yo`naltira olish;*

- *xalq va Vatan manfaatlarini yo`lida ashaddiy raqiblarini ham do`stga aylantirishga intilish;*

- *fidoyilik namunalarini ko`rsatishda o`rnak bo`lish va bu yo`lda tinim bilmaslik;*

- *zamonasining turfa jmuboqlariga tayinli javob izlash jarayonida iztirobli va ziddiyatli o`y xayollar girdobida o`rtanish;*

- *har bir yumushni mulohazakorlik, serandishalik bilan hal etish.*

Bunday go`zal insoniy xislatlari bilan Muhammad Ali qahramonlari qanchalik uzoq moziydan turib boqsalar-da, shu bugunning nafasi bilan yashayotganday qabul qilinadilar. Jumladan, adib Sohibqironni mana bunday lahzalarda haqqioniy tasvirlashga intiladi:

- *Siyosatu harb ishlariga e`tiborli bo`lish;*

- *oila va axloq, ta`lim-tarbiyasiga diqqat qaratish;*

- *fuqarolarning turmushi haqida qayg`urish;*

- *hunarmandu sipohiylarning ahvol-ruhiyatidan boxabar bo`lish;*

- *ona tabiatning rangin jilvalaridan zavqlanish;*

- *yaratish va bunyod etish zavqi bilan yashash;*

- *gohida ikkilanish va hatto adashish;*

- *turmush murakkabliklari va taqdir sinovlaridan toliqish.*

Muhimi, Amir Temur, hamisha haqiqat va adolat, yakdillik va birdamlik, bunyodkorlik va yashnatish yo`lidagi ezgu ideallarini ro`yobga chiqarishga ichki ruhiy kuch topa oladi. Iymon-e`tiqodiga sodiq qoladi. Haqiqatan ham saltanat bunyodkorining kuch-qudrati, tanlangan yo`lini muqaddas deb bilib, undan toymasligidadir. Ehtimol, Sohibqiron xarakterini chizishdagi nosirning novatorligi

ham aynan shu nuqtada namoyon bo'lsa ajab emas. Zero, qalamga olingan xarakter ruhiyati va ongidagi intilishlardan o'sib chiqqan ulug'vorlik xalqimizning real tarixiy o'tmishidagi burilishlardan ajralgan emas. Adib xususiylikdan katta umumlashmalar chiqrishini ko'zlaydi va bunga erishadi.

Demak, Muhammad Ali Sohibqiron siymosini ham ijtimoiy-siyosiy, ham oilaviy-axloqiy manfaatlar birligida talqin etish tendentsiyasini ilgari suradi. Bir qarashda oilaviy-intimdek tuyulgan holat-vaziyatlardan ham ulkan ijtimoiy mazmun keltirib chiqarishga muvaffaq bo'ladi. Bunda yozuvchi Amir Temurning butun hayot yo'lini hikoya qilish, uzoq davr sarguzashtlari haqidagi tarixiy faktlarni ko'plab istifoda etish yo'lidan bormaydi. Balki, sohibqiron hayotidagi eng muhim va xarakterli onlarni tanlab olib tahlilga tortishga intiladi. Nosirning tasvir usuli talab qilishga ko'ra, xotira va o'y-xayollar orqali o'tmish davr manzaralari jonlattiriladi.

Yuqorida so'z yuritilgan Muhammad Ali romanlarining tahlili orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, har ikki adib ham milliy qahramon badiiy qiyofasini yaratishda tarixiy davr va ijtimoiy muhit masalalariga alohida e'tibor qaratish bilan bir qatorda millatga xos eng yuksak insoniy sifatlarni o'z asarining markaziga qo'yganlar. Amir Temur, temuriyzodalar va malikalar obrazining badiiy qiyofalarini yaratishda ana shu nuqtai nazardan kelib chiqib ish ko'rganliklari uchun ham millat taqdiri uchun javobgar va milliylikning barcha qirralarini o'zida aks ettirgan yirik shaxslar qismatini tasvirlash orqali ularni milliy qahramon darajasiga ko'tarishni maqsad qilganlar.

UMUMIY XULOSALAR

Istiqlol arafasida va mustaqillik yillarida yaratilgan tarixiy romanlarda yozuvchining milliy ruh va milliy qahramon xarakterini yaratishda turlicha uslublar va uslubiy vositalar bilan ish ko'rganini kuzatish mumkin. P.Qodirov va Muhammad Ali romanlarida bevosita real hayotda yashayotgan qahramonlar bilan ish ko'rish vositasida milliy ruhni asar davomida badiiy jonlantirishga harakat qilishga erishgan. Yozuvchi P.Qodirov ushbu maqsadga bilvosita, ya'ni tarix va zamonni uyg'unlashtirish yo'lidan borganini kuzatamiz. M.Ali talqinicha, tarixda ezgulik va yovuzlik nisbati doimo birga yuradi. Ulardan birini ibrat qilib ko'rsatish bilan birga yovuzlikka nisbatan doimo beayov bo'lishlikni targ'ib qiladi. Har ikki holatda ham millat taqdiriga javobgar bo'lgan buyuk tarixiy siymolar obrazi bilan ish ko'rish o'zbek romannavislari asarlarining tub mohiyatini tashkil etib, ular vositasida tarix – zamon – kelajak munosabatlari badiiy talqin markaziga qo'yilganini anglash mumkin.

Tarixiy romanlardagi tarixiylik va badiiylilikni o'rganish natijasida quyidagicha xulosalarga keldik:

1. O'zbek milliy romanlarida tarixiylik mezonlarining joriylanishi tarixiy qahramon va tarixiy muhitning o'ziga xos tarzda badiiy aks ettirilishi bilan bevosita bog'liqdir. Mashhur shaxslar obrazi asosida yaratilgan asarlarning syujetida ham, prototipi real hayotda mavjud bo'lmagan to'qima personajlar yoki voqealar silsilasida ham, ayrim qahramonlar nutqining stilizatsiyasida ham tarixiylik bosh ijodiy tamoyil sifatida bo'y ko'rsatganligi kuzatiladi.

2. Tarixiy roman syujeti muayyan davrda bo'lib o'tgan hayotiy voqealarni bugungi kitobxon ko'z o'ngida qayta jonlantirish barobarida bugungi kun kishisi (muallif yoki qahramon) nigohini aniq ifoda etganligi ko'zga tashlanadi. Istiqlol davri o'zbek tarixiy romanchiligining badiiy-shakliy tuzilishi va falsafiy mohiyatiga ko'ra rang-barang asarlar bilan boyib borishida ijodiy yo'li istiqloлга qadar shakllangan adiblarning tajribalari muhim rol o'ynamoqda.

3. Tarixiy mavzuda asar yozish orqali katta tajriba orttirgan Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida Amir Temur davlatining emirilishi jarayonida ro’y bergan muammolar, ichki nizolar va taxt talashishlar natijasida temuriylar shajarasining birin-ketin inqirozga yuz tutishi bilan bog’liq fojealar ishonarli lavhalar orqali mahorat bilan tasvirlangan. Romanda temuriylar sulolasiga mansub ayollar siymosi talqini orqali, xususan, Gavharshod begim xarakteri vositasida milliy qahramonning, o’zbek ayollariga xos badiiy qiyofasini yaratishning yangicha tamoyili ko’zga tashlanadi. Milliy tarixiy muhitda shakllangan bu qahramon nafaqat ona yoki ayol qiyofasida, balki temuriylar sulolasi an’analarining saqlanib qolishi uchun mas’ul bo’lgan shaxslardan biri sifatida ham taqdim etilishi orqali “Ona lochin vidosi” asari o’zbek romanchiligiga yangicha talqin va uslub olib kirganligi e’tirof etildi.

4. Sho’ro mafkurasi tarixni xolisona, haqqoniy badiiy aks ettirishga mone’lik qilganligiga qaramay, o’sha davrda yashab, ijod qilgan o’zbek adiblari imkon qadar tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirishda xolislik mezoniga amal qilish uchun jiddiy harakat qilganini Muhammad Alining “Sarbadorlar” romani tajribasi orqali anglash mumkin. Shuning uchun adib o’zining “Ulug’ saltanat” romanida Amir Temur obrazini oilaviy muhitda tasvirlaganda ham, uning ulug’ saltanat asoschisi sifatida ta’riflaganda ham milliy qahramon kontseptsiyasi nuqtai nazaridan kelib chiqib ish ko’radi. Bunda uning ilk tarixiy asar yozish jarayonidagi tajribasi milliy qahramon xarakterini yoritish uchun mahorat maktabi vazifasini bajargan.

5. Muhammad Ali o’zining “Ulug’ saltanat” romanida jahonga larza solgan Amir Temur siymosining yangidan yangi qirralarini aks ettirish maqsadida tarixiy faktlarga tayangan holda buyuk Temur xarakteridagi shaxsiy fazilatlarni ham, yirik davlat arbobi va tadbirli sarkarda sifatidagi ulug’vorlik xususiyatlarni ham yaxlit holda jamlab olgan. Amir Temur xarakteridagi murakkab va ziddiyatli holatlar tasvirida ham adib uni millat kishisiga xos fazilatlarni o’zida ifodalagan milliy

qahramon sifatida ko'rsatishga moyillik bildirgani romanning muvaffaqiyatini ta'minlagan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining o'zbek adabiyotida birinchi tarixiy epopeya bo'lgan «Ulug saltanat» nomli asari Sohibqiron Amir Temur va temuriylar haqida yozilgan to'laqonli etuk badiiy asar sifatida baholanishga arziydi.

Kitob Amir Temur va temuriylar davrida yozilgan tarixiy manbalar asosida yaratilgani va tarixiy haqiqatga mos kelishi bilan qimmatli. Asar bilan tanishgan kitobxonlar Amir Temur va temuriylar davri tarixi, ma'naviyati, san'ati va madaniyatidan xabardor bo'ladilar.

Ulug` saltanatni ulug`lagan asarni xorijiy tillarga tarjima qilib nashr etish lozim, degan fikrdamiz. Shunda jahon xalqlari ham Amir Temur va temuriyzodalarning haqqoniy tarixi hamda hayotidan yaqindan xabardor bo'ladilar, shubhasiz, o'zbek zamini farzandining shijoatli umriga tahsinlar o'qiydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008. – 173 b.
2. Karimov I. Ma`naviy yuksalish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1998. – 480 b.
3. Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsing // Tafakkur. – Toshkent, 1998. – №2. – B. 2-16.
4. Karimov I. Adabiyotga e`tibor – ma`naviyatga, kedajakka e`tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 40 b.
5. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000. – 74 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2001. – 37 b.

II. ILMIY-NAZARIY ADABIYOTLAR

7. Abdusamatov. H. Tanqidmi, tosh otish? – Toshkent: Fan, 1978.
8. Adabiyot. Badiiyat. Abadiyat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 234 b.
9. Adabiyot va san`at. – Toshkent: Adabiyot va san`at, 1987. – 320 b.
10. Adabiyotimiz faxri. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – 325 b.
11. Aliev A. Istiqlol va adabiy meros. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 272 b.
12. Aliev A. Ma`naviyat, qadriyat va badiiyat. – Toshkent: Akademiya, 2000 . – 630 b.
13. Alimasov V. Falsafa yohud fikrlash chanqog'i. – Toshkent: Falsafa va huquq, 2007. – 278 b.
14. Alimasov V. Falsafa yohud fikrlash san`ati. – Toshkent: Noshir, 2008. – 255 b.
15. Anastas`ev N. Obnovlenie traditsii. – M.: Sov. pisatel`, 1984. – 349 s.
16. Andreev L.G. Sovremennaya literatura Frantsii. 60-e godi. – M.: Izd-vo MGU, 1977. – 366 s.
17. Aristotel`. Poetika. – Toshkent: Adabiyot va san`at, 1980. – 149 b.
18. Ahmedova Sh. Maktubot va adabiy tanqid. – Toshkent: Fan, 2005. – 99 b.
19. Ahmedova Sh. Adabiy tanqidchilik janrlari. – Toshkent: Fan, 2008.

20. Baldauf I. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2001. – 69 b.
21. Baranov V.I, Bacharov A.G, Surovtsev Yu.I. Literaturno- xudojestvennaya kritika. – M.: Visshaya shkola, 1982. – 206 s.
22. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 560 b.
23. Borev Yu. Estetika. Izd. 3. – M.: Politizdat. 1980. – 399 s.
24. Boltaboev H. Fitrat va jadidchilik. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2007. – 284 b.
25. Boltaboev H. Qatag'on qilingan ilm. – Toshkent: Xazina, 1996. – 120 b.
26. Boqiy N. Qatlnoma. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1992. – 208 b.
27. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. X-XIX asrlar. – Toshkent: O'zbekiston, 1993. – 191 b.
28. Q.Yo'ldoshev “ Yoniq so'z” Toshkent. 2006-y.
29. Q.Yo'ldoshev “ Badiiy asar tahlili metodikasi” Toshkent. 2005-y.
30. B.To'xliiev “ Adabiyot o'qitish metodikasi” Toshkent. 2008-y.
31. U. O'ljaboev “ Badiiy tasvir haqqoniyligi” “Ziyo” nashriyoti Guliston 2006-y.
32. A.Quljonov “O'zbek adabiy tanqidi tarixi” “Ziyo” Guliston. 2008-y.
33. H.Mirhaydarov “Tafakkur gavhari” Xo'jand. 2006y.
34. N.Rahimjonov, Q.Kubaev “Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi” Adolat nashriyoti. Toshkent 2005-y.
35. [http:// O'O'O'/ ziyonet. uz/ ru/ library/ book/](http://O'O'O'/ziyonet.uz/ru/library/book/) Ergasheva Sh.T, Po'lotov A.R, Tabaev.A.Z. Bitiruv malakaviy ishini yozish va himoya qilish bo'yicha metodik qo'llnma. Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti. 2008-y.
36. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. Adabiy asar. -Jild.1.-T.: Fan, 2001. – 416 b.
37. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. – Jild.1.-T.: Fan, 2002. – 448 b.
38. N.Hotamov. B. Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1989. – 300 b.
39. Adabiy turlar va janrlar. Z jildlik. 1 jild. Epos. -T.: Fan, 1991.-264 b.

40. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: 2001. – 93 b.
41. Yo'ldoshev Q. Dastlabki dovon belgilari // Sharq yulduzi.-2001.- birinchi fasl. B. 5-10
42. [www. google](http://www.google)
43. [www. ziynet uz.](http://www.ziynet.uz)
44. [www. literature. uz.](http://www.literature.uz)

III. BADIY ADABIYOTLAR

1. P.Qodirov. Ona lochin vidosi. –T., 2000 y. 223 b
2. M.Ali. Ulug' saltanat. (1-2-3 kitoblar). –T., Sharq. 2002-2010 y.y.